

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON BADIY AKADEMIYASI HUZURIDAGI
BADIY TA'LIM YO'NALISHLARIDA PEDAGOG VA MUTAXASSIS
KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH HAMDA ULARNING
MALAKASINI OSHIRISH MARKAZI**

"MUZEYSHUNOSLIK (TURLARI BO'YICHA)" YO'NALISHI

**"MUZEY ISHINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI"
MODULI BO'YICHA**

O'QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent 2023

Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2016 yil 6 apreli dagi 137-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi.

Tuzuvchi: J.Axmedov – t.f.f.d (PhD).

Taqrizchilar: K.Nishanova – dotsent.
M.Muhamedova – dotsent.

O‘quv dasturi O‘zBA huzuridagi Markaz Ilmiy-metodik Kengashining qarori bilan tasdiqqa tavsiya qilingan (2023 yil 1-maydagи 2- sonli bayonnoma).

MUNDARIJA

| | |
|--------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|
| I. ISHCHI DASTUR | 3 |
| II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI | 11 |
| III. NAZARIY MATERIALLAR | 19 |
| IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI | 19 |
| V. KEYSLAR BANKI | 50 |
| VI. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI | 54 |
| VII. GLOSSARIY | 56 |
| VIII. ADABIYOTLAR RO'YXATI..... | Ошибка! Закладка не определена. |

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Ushbu dastur madaniyat sohasi mutaxassislarining malakalarini oshirishga qaratilgan. Madaniyat sohasi mutaxassislarining malakasini oshirish, bilimlarini davlat talablari va jahon andozalari darajasiga ko‘tarish, yangilash islohotlar davrining dolzARB masalalaridan biridir.

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019-yil 27-avgustdagagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son va 2020-yil 29-oktyabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli, 2020-yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rnii va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagagi “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3920-son, 2018-yil 19-dekabrdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi PQ-4068-son, 2020-yil 4-fevraldagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4584-son, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797 sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiy malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Kredit modul tizimi va o‘quv jarayonini tashkil etish, ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish, maxsus maqsadlarga yo‘naltirilgan ingliz tili, mutaxassislik fanlar negizida ilmiy va amaliy tadqiqotlar, o‘quv jarayonini tashkil etishning zamonaviy uslublari bo‘yicha so‘nggi yutuqlar, pedagogning kreativ kompetentligini rivojlantirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida

individuallashtirish, masofaviy ta’lim xizmatlarini rivojlantirish, vebinar, onlayn, “blended learning”, “flipped classroom” texnologiyalarini amaliyatga keng qo’llash bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Dasturda Muzeylarning yangi turlari va ixtisosliklari. Muzey pedagogikasi. O‘zbekiston Respublikasi “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishslash. Muzeylar faoliyatiga oid xalqaro me’yoriy hujjatlar va xartiyalar. Muzeydan tashqari ko‘rgazmalar: funksiya va tipologiya. Ko‘rgazma faoliyatida kompyuter texnologiyalari. Muzey fondlarini elektron hujjatlashtirish. Muzey dizayni. Muzey va reklama hamda xalqaro tajribalar o‘rganiladi.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulning maqsadi: pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘kuv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarini o‘zlashtirish va amaliyatga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

Modulning vazifalari:

- “Muzeyshunoslik (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;
- mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;
- “Muzeyshunoslik (turlari bo‘yicha)” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Muzey ishini rivojlantirish tendensiyaları” modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

- muzeylarning yangi turlari va ixtisosliklarini;
- muzey pedagogikasini;
- muzeylar faoliyatiga oid xalqaro me’yoriy hujjatlar va xartiyalarini;
- XXI asr muzeylarining yangi yo‘nalishlarini;

- muzeylarda to‘plash, hujjatlashtirish va interpritatsiya masalalarini;
 - ekspozitsiyaning ilmiy, badiiy loyiylarini;
 - yodgorlikning tarixiy-madaniy meros obyekti sifatidagi o‘rnini;
 - konservatsiya va restavratsiya atamalarining fanga kirib kelishi va yodgorliklarni saqlashdagi muhim ahamiyatini;
 - “Chegarasiz ta’mirlash” tashkiloti faoliyatini;
 - yodgorliklarni zamonaviy muzeylashtirish ishlari madaniy va tarixiy yodgorliklarining muhofazasi, metodologiyasi va sotsiologiyasini;
 - O‘zbekistonda tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash va ta’mirlash tarixinni;
 - XX asr boshlarida muzeylarda ta’lim-tarbiya tashviqot ishlarining shakllanish tarixini;
 - muzey-pedagogik faoliyatining zamonaviy shakllari tasnifini;
 - Germaniya, Rossiya, AQSHda muzeyga oid ta’lim faoliyatining paydo bo‘lishi va rivojlanishni;
 - muzey ekspozitsiyalarida turli yoshdagi tashrif buyuruvchilar auditoriyasining psixologik-pedagogik ixtisoslashtirish jarayonlarini;
 - muzey andragogikasini;
 - nutq madaniyati nazariyasining asosiy tushunchasini;
 - zamonaviy Nutq madaniyati nazariy va amaliy uslublarini;
 - nutq madaniyati va uning meyorlarini;
 - muloqot, muomala tushunchalarini;
 - san’atning asosiy estetik kategoriyalarini;
 - san’at va uning mohiyati, asosiy turlarini;
 - estetik munosabat va estetik anglashni;
 - san’atning shaxs estetik madaniyatini shakllantirishdagi o‘rnini **bilishi** kerak.
- Tinglovchi:**
- O‘zbekiston Respublikasi “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishlash;
 - muzey to‘plamlarini komplektlash va ekspozitsiyaga qo‘yishning ilmiy prinsipidan amaliyotda foydalanish;
 - yodgorliklarni saqlash;
 - yodgorlikning muhofazaga olish;
 - maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar va maktab o‘quvchilari uchun muzey-pedagogik faoliyatining zamonaviy shakllaridan samarali foydalanish;
 - Bolalar muzeylari: paydo bo‘lish tarixi, hozirgi kundagi xolatini o‘rganish;
 - Amerika bolalar muzeyi tajribasining jahon muzeylarida qo‘llanilishini tahlil etish;
 - nutqning uslubiy turlarinini qo‘llash;
 - nutq mahoratini rivojlantirishning o‘ziga xos ahamiyatitshtsh anglash;
 - san’at va uning estetik mohiyatini anglash;
 - go‘zallik va xunuklik, ulug‘vorlik va tubanlik, fojeaviylik va kulgulilik kabi estetik xususiyatlarning san’atda namoyon bo‘lishini baholay olish;
 - san’at turlari va janrlaridan foydalanish **ko‘nikmalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- ekspozitsiya tuzish metodlarini qo‘llash;
- muzeydan tashqari ko‘rgazmalardan foydalanish;
- ko‘rgazma faoliyatida kompyuter texnologiyalarini qo‘llash;
- muzey fondlarini elektron hujjatlashtirish.
- yodgorliklarning madaniy obyekt pasportini tuzish va ularni qayd etish;
- turli ixtisoslikdagи muzeylarda talabalarga muzey klassifikatsiyasidan kelib chiqqan xolda ekskursiya matni va dasturiy loyixalar tayyorlash.
- muzey-fond ishida va ekspozitsiya faoliyatida axborot texnologiyalarning qo‘llash;
- ovozdan foydalanish va nutq texnikasi rivojlantirish.;
- madaniy nutqning kommunikativ sifatlarini o‘rganish; .
- o‘qituvchining nutq mahorati rivojlantirish;
- badiiy ijodga estetik munosabat tarixini bilish;
- go‘zallikni anglash va baholashda estetika tushunchalarining o‘rnini va rolini tahlil etish **malakalariga** ega bo‘lishi lozim.

Tinglovchi:

- ekspozitsiya tuzish metodlaridan samarali foydalanish;
- muzey-pedagogik faoliyatining zamonaviy shakllarini qo‘llash;
- O‘zbekistonda tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash va ta’mirlash usullarini takomillashtirish;
- ko‘rgazma faoliyatida innovatsion texnologiyalarni joriy etish;
- ekspozitsiyaning ilmiy va badiiy loyihasini yaratish;
- muzey-fond ishida va ekspozitsiya faoliyatida xorijiy tajribalardan foydalanish **kompetensiyalariga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Muzey ishini rivojlantirish tendensiyalari” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi, shuningdek, ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalarni;

- o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda ustaxonalar, sohaga oid muassasalar va soha mutaxassislarining ijodiy ustaxonalarida tashkil etilishi, badiiy ta’limning muhim ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutildi.

Modulning oliy ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar badiiy ta’limning ta’lim va tarbiya jarayonlarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llash va baholashga doir kasbiy kompetentlikka ega bo‘ladilar.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

| № | Modul mavzulari | Auditoriya o‘quv yuklamasi | | | |
|----|------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------|----------|-------------------|--------------------|
| | | Jami | Nazariy | Amaliy mashg‘ulot | Ko‘chma mashg‘ulot |
| 1. | O‘zbekistonda muzey ishini rivojlanish tendensiyalari | 4 | 4 | | |
| 2. | Muzey pedagogikasining metodologiyasi | 4 | 2 | 2 | |
| 3. | Madaniy turizm nazariyasi | 4 | | 4 | |
| 4. | Muzeyda fond ishi | 4 | | 4 | |
| 5. | Ekskursiyashunoslik | 4 | | 4 | |
| 6. | Muzey ishining tashkiliy-huquqiy assoslari | 2 | | 2 | |
| 7. | O‘zbekistonda muzey ishi tarixi | 2 | | 2 | |
| 8. | Muzeyda fond ishi, ekskursiyashunoslik, muzey ekspozitsiyasini tashkil qilish masalalari | 6 | | | 6 |
| | Jami: | 30 | 6 | 18 | 6 |

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. O‘zbekistonda muzey ishini rivojlanish tendensiyalari (4 soat)

Muzeylarning yangi turlari va ixtisosliklari. Muzey pedagogikasi. O‘zbekiston Respublikasi “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishlash. Muzeylar faoliyatiga oid xalqaro me’yoriy hujjatlar va xartiyalar. XXI asr muzeylarining yangi yo‘nalishlari. Muzeylarda to‘plash, hujjatlashtirish va interpritatsiya masalalari. Muzey to‘plamlarini komplektlash va ekspozitsiyaga qo‘yishning ilmiy prinsipi. Ekspozitsiya tuzish metodlari. Ekspozitsianing ilmiy loyihasi. Ekspozitsianing badiiy loyihasi. Ko‘rgazma faoliyatining tarixi. Muzeydan tashqari ko‘rgazmalar: funksiya va tipologiya. Ko‘rgazma faoliyatida kompyuter texnologiyalari. Muzey fondlarini elektron hujjatlashtirish. Muzey dizayni. Muzey va reklama.

2-mavzu. Muzey pedagogikasining metodologiyasi (2 soat)

XX asr boshlarida muzeylarda ta’lim-tarbiya tashviqot ishlarining shakllanish tarixi. Muzey-pedagogik faoliyatining zamonaviy shakllari tasnifi. Germaniya, Rossiya, AQSHda muzeyga oid ta’lim faoliyatining paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Muzey ekspozitsiyalarida turli yoshdagi tashrif buyuruvchilar auditoriyasining

psixologik-pedagogik ixtisoslashtirish jarayonlari. Muzey andragogikasi. Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar va maktab o‘quvchilari uchun muzey-pedagogik faoliyatining zamonaviy shakllari. Bolalar muzeylari: paydo bo‘lish tarixi, hozirgi kundagi xolati.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-mavzu. Muzey pedagogikasining metodologiyasi (2 soat)

Muzey andragogikasi. Maktab yoshigacha bo‘lgan bolalar va maktab o‘quvchilari uchun muzey-pedagogik faoliyatining zamonaviy shakllari. Bolalar muzeylari: paydo bo‘lish tarixi, hozirgi kundagi xolati. Amerika bolalar muzeyi tajribasining jahon muzeylarida qo‘llanilishi. Maktab muzeylari. Turli ixtisoslikdagi muzeylarda talabalarga muzey klassifikatsiyasidan kelib chiqqan xolda ekskursiya matni va dasturiy loyixalar tayyorlash. Muzey-fond ishida va ekspozitsiya faoliyatida axborot texnologiyalarning qo‘llanilishi.

2-mavzu. Madaniy turizm nazariyasi (4 soat)

Yodgorlikning tarixiy-madaniy meros obyekti sifatidagi o‘rni. Konservatsiya va restavratsiya atamalarining fanga kirib kelishi va yodgorliklarni saqlashdagi muhim ahamiyati. “Chegarasiz ta’mirlash” tashkiloti faoliyati. Yodgorliklarni zamonaviy muzeylashtirish ishlari madaniy va tarixiy yodgorliklarining muhofazasi, metodologiyasi va sotsiologiyasi. Yodgorliklarni saqlash jarayoni. Yodgorlikning davlat muhofazasiga olinishi. Yodgorliklarning madaniy obyekt pasportini tuzish va ularni qayd etish tizimi. O‘zbekistonda tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash va ta’mirlash tarixi

3-mavzu. Muzeyda fond ishi (4 soat)

Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash hamda ommaga namoyish etish talablariga javob beradigan moddiy-texnik bazaning, shu jumladan bino (xona yoki xonalar), zarur ko‘rgazma jihozlari, muhofaza vositalari hamda yong‘inga qarshi vositalar bilan ishslash ko‘nikmalari. Muzeylarning asosiy fondida saqlanayotgan muzey ashyolari, muzey kolleksiyalarining noyobligi, ularning saqlanish holati, muzey binosining amaldagi talablarga mosligi, zamonaviy texnika va fond jihozlari bilan ta’minlanganligi, tashrif buyuruvchilar uchun yaratilgan qulayliklar, ekspozitsiyasining jahon standartlariga javob bera olishi, xalqaro aloqalar yo‘lga qo‘yilganligi hamda eksponatlar soni, muzeyga bir yil davomida tashrif buyurganlar soni to‘g‘risidagi axborotlarni tayyorlash. Muzey toifalari va toifalash tushunchasi. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini saqlash. Muzey

ashyolari va muzey kolleksiyalarini aniqlash hamda to‘plash. Madaniy, ma’rifiy, ilmiy va ta’lim faoliyatini amalga oshirish. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini o‘rganish. Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini e’lon qilish

4-mavzu. Ekskursiyashunoslik (4 soat)

O‘zbekistonda muzey ekskursiyasi xizmatini ko`rsatish, ekskursiyani tashkil qilish bu sohada erishilgan yutuqlar, sohaning ijtimoiy-iqtisodiy ko`rsatkichlari ilmiy tadqiqotlar, sohaga ta’luqli maxsus adabiyotlar bilan ishlash. Ekskursiyaning o`ziga xos shartlari. Tematika (mavzu), rejalashtirilgan yo`nalish, ma'lum muddatga oldindan tayyorlangan matn. Ishtirokchilar – ekskursantlar bilan ishlay olish ko‘nikmasining bo`lishi. Ekskursiyaning funktsional ahamiyati. Madaniy obekt haqida qiziqarli va ilmiy axborot bera olish Muloqot madaniyati

5-mavzu. Muzey ishining tashkiliy-huquqiy asoslari. (2 soat)

O‘zbekiston Respublikasi “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishlash. Muzeylar faoliyatiga oid xalqaro me’yoriy hujjatlari va xartiyalar. O‘zbekiston Respublikasi “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni va qonun osti hujjatlari bilan ishlash. siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va boshqa sohalarda mamlakatda erishilgan yutuqlarni keng targ‘ib etishga qaratilgan muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish. Muzeylar o‘z maqsad va vazifalarini amalga oshirishda davlat tashkilotlari, nodavlat tashkilotlari bilan birgalikda hamkorlik dasturlarini ishlab chiqishi, turli tanlovlari, ko‘rgazmalar tashkil etishi hamda belgilangan tartibda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boorish

6-mavzu. O‘zbekistonda muzey ishi tarixi. (2 soat)

Turkistonda dastlabki muzeylarning shakllanishi. 1917-1990 yillarda muzeylar va muzey ishi. Buxoro, Xiva, Quqon xonliklarida nodir qulyozmalar kolleksiysi. Toshkentda Turkiston muzeyining tashkil etilishi. Korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, jamoa boshqaruv xo`jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta’limi tizimida muzeylar faoliyatining yo‘lga qo‘yilishi.

KO‘CHMA MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI
1-mavzu. Muzeyda fond ishi, ekskursiyashunoslik, muzey ekspozitsiyasini
tashkil qilish masalalari
(6 soat)

Tasviriy va amaliy san’at muassasalarida va nomoddiy madaniy me’ros ob’ektlari, muzeylar, muzey qo‘riqxonalariga tashrif buyurish, ekspozitsiya, fond ishi va rivojlantirish konsepsiysi bilan tanishish.

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI.

“Aqliy hujum” metodi

Aqliy hujum usuli

Aqliy hujum (breynstroming - aqlar to‘zoni) – amaliy yoki ilmiy muammolar yechish g‘oyasini javoaviy yuzaga keltirish.

Aqliy hujum va masalani yechish bosqichlari

1. Mustaqil fikrlang xayolingizga kelgan barcha g‘oya, fikrlarni qog‘ozga yozing.
2. Barcha g‘oya va fikrlarni yozing, agar ular takrorlanayotgan bo‘lsa, maxsus belgi qo‘ying.
3. G‘oyalarni baholang.
4. Eng maqbul g‘oya guruh g‘oyasi sifatida shakllantiradi.
5. Barcha yozilgan g‘oyalar guruh muammosini yechish
6. Guruhning umumiy javobi shakllantiriladi.

“SWOT-таҳлил” методи.

Metodning maʼnisi – SWOT-таҳлил. SWOT-таҳлил ajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrashni, nostandard tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.



Namuna: Rassom ijodkorlar uchun SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

| | | |
|----------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| S | Rassom kim ? Badiy asar yaratuvchi. | Rassom bu tinmay izlanuvchi ijodkor inson |
| W | Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar. | Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir |
| O | Rassomlar chiziqlar, shakllar, ranglar, tasviriy san’at vositalari yordamida badiy obrazli asar yarata oladigan insonlar. (ichki) | Ular tasviriy san’at vositalardan, chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan tasvir orqali o‘z g‘oyasini, fikrini bayon eta oladilar. |
| T | To‘sıqlar (tashqi) | Rassomlarga erkinlik bo‘lmassa chiziqlar, shakllar, tasviriy san’at vositalari bilan o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta olmaydilar. |

“Baliq skeleti”


Natyurmort kompozitsiyasini “Baliq skeleti” chizmasi Bir qator muammolarni tasvirlash va uni yechish imkonini beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. 4



| Bilamiz | Bilishni istaymiz | Bilib oldik |
|------------------------------------------------|---------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1.Rassom yangi g‘oyada asar yaratadigan inson. | 1.Xar bir izlanuvchi insonni rassom deb atash mumkinmi? | Ilmiy amaliy izlanishlarni olib boruvchi, yangi usul va vositalarni qo‘llay oladigan insonni rassom deymiz. |
| 2.Rassomlar tasviriy chiziqlar vositalardan, | 2.Dunyodagi g‘oyaviy kompozitsilarni tasvirla | R.Ahmedov tasvirlagan asarlar hozirgi rassomlar |

| | | |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| shakllar, vositalarni o‘z asarlarida tasvir orqali bayon eta oladigan insonlar. Ma’naviy estetik tarbiyalovchi | oladigan rassomlar qatoriga kimlarni kiritса bo‘ladi. | uchun amaliy metodik o‘quv jarayonidagi rivojlanishida foydalanimoqda. |
| 3.Rassomlar asarida insonnlarni ma’naviy-ma’rifiy estetik tarbiyalovchi insonlardir. | 3.Rassom bo‘lish uchun nima qilish kerak? | O‘ral Tansiqboyev manzaralarini butun o‘zbekistondagina emas balki yevropa davlatlrida xam maroq bilan tomosha qiladilar. |
| 4.Rassom bu tinmay izlanuvchi inson | 4.Ijodiy asarlarni tasvirlashni payoni bormi? | Abdulhaq Abdullayev portret janrida ijod etgan taniqli rassomlardandur. |
| 5.Umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan rassomlar. | 5.Kompyuterda ijodiy asar yaratса bo‘ladimi ? | Zamonaviy yunalishda ijod etayotgan taniqli rassom A.Nuridinov asarlarida sevgi, oila, sadoqatlik, tarbiya va jamiyatdagi falsafiy tamoyillar asosida ijod etayotgan ijokorlardandir. |
| 6.O‘zbekistonlik rassomlar | O‘zbekistonda taniqli metodik qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan kimlarni bilasiz? | O‘zbekistonda taniqli metodik qo‘llanmalar, uslubiy qo‘llanmalar ustida ishlab kelayotgan taniqli rassom va pedagoglardan: B.Boymetov,M.Nabihev, O.Egamov, R.Xudayberganov, R.Djalilova |


Интерьерда натюрмортни акс этириш

 **Интерьер - xonadan ichki** ko‘rinishini perespektivada aks etiriladi. Tasviriy san’at janrlaridan: natyurmort, portret, tarixiy, maishi animal ko‘rinishlarda fon vazifasini o‘taydi.

Interyerda uyni eshik derazalarning shakli, hajmi, devor va shift, polni bezagi va uy jihozlarining bezagi tasviri orqali qaysi davrga mansubligini bilib olishimiz mumkin. Interyer - ichki me’moriy muxit xolati orqali xonardon sohibasining didi haqida yoki zavod sexning jihozlanishiga qarab ilmiy, taraqqiyot

holati haqida xulosa chiqarish mumkin. Interyerda natyurmortni perespektivada aks etirish, tasvirlash jarayonlari ko'rsatilgan.

Interyer, kompozitsiyasi mavzusidatasviriy san'at o'qitishning zamonaviy texnologiyasini qo'llash.



«Keys-stadi» - inglizcha so'z bo'lib, («catse» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o'r ganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o'r ganish, tahlil qilish asosida o'qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o'r ganishda foydalanish tartibida qo'llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan yoki aniq voqeа-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o'z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim? (Who), Qachon? (When), Qayerda? (Where), Nima uchun? (Why), Qanday? Qanaqa? (How), Nima-natija? (What).

“Keys metodi” ni amalga oshirish bosqichlari

| Ish bosqichlari | Faoliyat shakli va mazmuni |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-bosqich: Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishtirish | <ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka tartibdagи audio-vizual ish; ✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda); ✓ axborotni umumlashtirish; ✓ axborot tahlili; ✓ muammolarni aniqlash |
| 2-bosqich: Keysni aniqlashtirish va o'quv topshirig'ni belgilash | <ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishslash; ✓ muammolarni dolzarblik iyerarxiyasini aniqlash; ✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| 3-bosqich: Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o'quv topshirig'ining yechimini izlash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish | <ul style="list-style-type: none"> ✓ individual va guruhda ishslash; ✓ muqobil yechim yo'llarini ishlab chiqish; ✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to'siqlarni tahlil qilish; ✓ muqobil yechimlarni tanlash |
| 4-bosqich: Keys yechimini yechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | <ul style="list-style-type: none"> ✓ yakka va guruhda ishslash; ✓ muqobil variantlarni amalda qo'llash imkoniyatlarini asoslash; ✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash; ✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish |

“Insert” metodi.

Metodning maqsadi: Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmlarni o'zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o'qituvchi mashg'ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko'rinishida tayyorlaydi;
- "Tasviriy san'at" bo'yicha yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta'lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko'rinishida namoyish etiladi;
- ta'lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, rangtasvir bo'yicha o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishslashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalananish tavsiya etiladi:


| Belgilar | 1-matn | 2-matn | 3-matn |
|--------------------------------------------------|--------|--------|--------|
| "V" – tanish ma'lumot. | | | |
| "?" – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak. | | | |
| "+" bu ma'lumot men uchun yangilik. | | | |
| "–" bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman? | | | |

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta'lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar professor - o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.



“Briefing” - (ing. Briefing - qisqa) Rangtasvir bo'yicha biror – bir masala yoki savolning muhokamasiga bag'ishlangan qisqa press - konferensiY.

O'tkazish bosqichlari:



Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, biror bir asarni chizishdan oldin bir shakl sifatida oldin chizilgan bior asar masalan: “Monaliza” portretini olaylik tinglovchilar bilan birga shu asar qachon va kim tomonidan yaratilganligi muhokama qilinadi va boshqa rassomlarni chizgan portretitahlil qilinadi. Talabalar yoki tinglovchilar tomonidan yaratilgan yangi asar taqdimoti o‘tkaziladi.

“Portfolio” metodi.

“Portfolio” – (ital. Portfolio - portfel, ingl. hujjatlar uchun papka) ta’limiy va kasbiy faoliyat natijalarini autentik baholashga xizmat qiluvchi zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan hisoblanadi. Portfolio mutaxassisning saralangan o‘quv - metodik ishlari, kasbiy yutuqlari yig‘indisi sifatida aks etadi. Jumladan, har bir tinglovchilarning modul yuzasidan o‘zlashtirish natijasini elektron portfoliolar orqali tekshirish mumkin bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasalarida portfolioning quyidagi turlari mavjud:

| Faoliyat turi | Ish shakli | |
|--------------------|--------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| | Individual | Guruhiy |
| Ta'limiy faoliyat | Talabalar portfoliosi, bitiruvchi, doktorant, tinglovchi portfoliosi va boshq. | Talabalar guruhi, tinglovchilar guruhi portfoliosi va boshq. |
| Pedagogik faoliyat | O'qituvchi portfoliosi, rahbar xodim portfoliosi | Kafedra, fakultet, markaz, OTM portfoliosi va boshq. |

Har bir tinglovchi kurs mobaynida o‘zining shaxsiy portfoliosini kiritib boradilar.

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-mavzu. O‘zbekistonda muzey ishini rivojlanish tendensiyalari (4 soat)

Har bir davlat taraqqiyot sari odimlar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar hamda qadimiy yodgorliklarni o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy hol. Bu borada esa muzeylarning o'rni beqiyos. Chunki ular o'tmishdan kelgan madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimga solingan yig'indisi bo'lib, amaldagi tartiblarga muvofiq saqlanadi va namoyish qilinadi.

1977 yildan buyon dunyoda an'anaviy tarzda 18-may Xalqaro muzeylar kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Joriy 2018 yilgi Xalqaro muzeylar kuni «Muzeylarda zamonaviy texnologiyalar: muzey va ko'rgazmalar uchun innovatsion yechimlar» shiori ostida o'tkazilmoqda.

Mustaqillik yillarda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan tarixiy merosimizni o'zida saqlovchi muassasa hisoblangan muzeylar rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur sohaning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, Islom Karimov yurtimiz tarixini, ko'p yillik merosini o'zida mujassam etgan muzeylarni tashkil etish bo'yicha bir qator amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, 1994 yilda "O'zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan O'zbekiston tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Natijada yurtimiz tarixini o'zida to'liq aks ettiruvchi 3 mingdan ortiq asori atiqalar va noyob eksponatlarga ega muzey tashkil topdi.

Yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslarimiz nomini tiklash va ularning boy moddiy-madaniy merosni yosh avlodga yetkazib berish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1996 yil 18 oktabrda buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan yurtimizda yangi bir muzey - Temuriylar tarixi davlat muzeyi o'z faoliyatini boshladi. Islom Karimov mazkur muzeyning ochilish marosimida ushbu muzeyga nisbatan shunday ta'rif bergen edilar: "Temuriylar tarixi davlat muzeyi sohibqiron shaxsiyatiga nisbatan yurtimizda tarixiyadolat tantana qilganining yana bir amaliy isbotidir. Aytish mumkinki, Amir Temur hiyoboni go'zal bir uzuk bo'lsa, bu muzey shu uzukning yoqut ko'zidir. Muzeyni ziyorat qilgan har bir inson mening so'zlarim shoirona tashbeh yoki mubolag'a emasligiga ishonch hosil qiladi. Bu muzeyda bizning o'tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoli ko'zguda aks etgandek namoyon bo'ladi".

1997 yilda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan o'zining salohiyati hamda badiiy ijod sohasida mutaxassis kadrlarni

yetkazib beruvchi Markaziy Osiyoda yagona bo‘lgan oliy ta’lim muassasasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil etilib, Institut qoshida esa ilk bor muzeyshunos mutaxassis kadrlarni tayyorlashni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan yo‘nalish ochildi. Bu albatta, O‘zbekiston tarixida muzeyshunoslikning fan sifatida rivojlanishi uchun qo‘yilgan tamal toshi bo‘ldi desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risidagi” Farmoniga muvofiq Respublikamizdagi Madaniyat ishlari vazirligi, boshqa vazirlik va idoralarga tegishli barcha turdagи mavjud muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ko‘llab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatishni ta’minalash maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi qoshidagi Muzeylarni qo‘llab-quvvatlash respublika “O‘zbekmuzey” jamg‘armasi tashkil qilindi.

Mazkur farmonga muvofiq mamlakatimiz aholisining muzeyshunoslik madaniyatini oshirish, ularni merosimiz va qadriyatlarimizdan xabardor qilib borish hamda mutaxassislar, muzey xodimlarining muzeyshunoslik sohasidagi ilmiy ishlarini chop etish, bu sohadagi yutuqlarni targ‘ib qilish, muzey xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida uch oyda bir marta o‘zbek, ingliz va rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma’naviy ma’rifiy, rangli “Moziydan sado” jurnali ta’sis etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma’naviy axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimiz boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o‘rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g‘urur va iftixon, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg‘ularini kuchaytirish yo‘lida keng foydalanish, muzeylarni zamon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minalash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini ko‘llashga zarur shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Tabiiyki, tarix muzeylari xalq o‘tmishi va xotirasining ifodasi hisoblanadi. Istiqlol yillarda tashkil topgan yana bir tarixiy muzey bu - “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” muzeyidir. 1999 yili Islom Karimov tashabbusi bilan mamlakatimizda qatag‘on qurbanlari xotirasini abadiylashtirish va “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasini barpo etishga qaror qilindi va bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1999 yil 12 maydag‘i farmoniga ko‘ra, mustamlakachilik davri qurbanlari xotirasini abadiylashtirish komissiyasi tuzilib, Toshkentning Yunusobod tumanida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etildi. 2000 yil 12 may kuni “Shahidlar xotirasi”

yodgorlik majmuasining tantanali ochilishi mamlakatimiz va xalqimizning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy hayotida ulkan voqeа bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 martdagи “Muzeylar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash masalalari to‘g‘risida”gi 98-sonli hamda 1999 yil 27 dekabrdagi “Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi 545-sonli qarorlari asosida o‘z faoliyatini 2001 yilda boshlagan Termiz arxeologiya muzeyi tashkil topdi.

2008 yil 12 sentabrda qabul qilingan “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqimiz ma’naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini o‘rganish, avaylab asrash, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish imkonini yaratib berdi.

2009 yilda Toshkentda aloqa tarixi muzeyi ish boshlagan bo‘lsa, 2015 yilda esa mintaqadagi ilk bor Politexnika muzeyi ochildi. Bu boradagi ishlар tizimli davom ettirilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 25 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ko‘p yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohini muzeylashtirish ishlari davom etmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 15 fevraldagи “O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi hamda “Madaniyat va san‘at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori muzeylar faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Muzeylar faoliyatini takomillashtirish ichki va tashqi turizmning rivojlanishiga olib keladi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida turizmni rivojlantirish borasidagi quyidagi fikrlarni bildirib o‘tdilar: “Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo‘lgan “kichik haj” dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solish lozim”.

Zamonaviy iqtisodiyotning yangi va istiqbolli bo‘g‘ini turizm hisoblanadi. So‘nggi paytlarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish orqali yurtimiz

iqtisodiyotini yuqori bosqichlarga ko‘tarish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, buyuk va navqiron o‘tmishimiz, tariximizni namoyon etuvchi ochiq osmon ostidagi muzey shahar deb nom qozongan tarixiy shaharlarga sayohatlar uyuştirish ommaviy harakatga aylanmoqda. Bu borada «Ochiq osmon ostidagi muzey» deya e’tirof etilgan qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro va Xivada ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.

2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi, jumladan, «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili» Davlat dasturida ham turizmni rivojlantirish bo‘yicha asosiy vazifalar belgilab olingan: mahalliy aholining mamlakat bo‘ylab sayohatlarini rag‘batlantirish, sayyoohlarni uchun qulay infratuzilma yaratish, hududlarning sayyoqlik salohiyatini keng targ‘ib qilish orqali ichki turizmni tizimli rivojlantirish; xorijiy sayyoohlarning tashrifi uchun keng sharoitlar yaratish, ularning sayohat dasturlarini mazmunan boyitish va ko‘rsatiladigan xizmatlar turlarini kengaytirish hisobiga turizmni jadal rivojlantirish; mamlakatimizdagi moddiy madaniy meros obyektlarida va ular atrofidagi obyektlarda tegishli infratuzilmani shakllantirish, amalga oshiriladigan diniy marosimlar uchun tegishli sharoitlarni yaratish orqali ziyyarat turizmini sohaning istiqbolli yo‘nalishi sifatida rivojlantirish.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, muzeysunoslikka berilgan yuksak e’tiborning samarasi o‘laroq mazkur sohada quyidagi misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirildi:

- muzeysunoslik sohasini rivojlantirish, takomillashtirishga doir qator qonun hujjatlari qabul qilindi hamda muzeylar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.
- muzeypishini samarali yo‘lga qo‘yish hamda muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida jamg‘arma tashkil etildi.
- mustaqillik yillarda O‘zbekiston muzeylarida saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga namoyish etish bo‘yicha qator ko‘rgazmalar jahon muzeylarida tashkil etildi.

Yuqorida sanab o‘tilgan soha rivojidagi muvofaqiyatlar O‘zbekistonda muzeysunoslik sohasini taraqqiy etishiga mustahkam zamin yaratgan omillardir. Tashkil etilgan va etilayotgan ko‘plab yangi muzeylar yosh avlodni tariximiz, moddiy va madaniy merosimizni naqadar chuqur ildizga egaligini singdirgan holda, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari bilan tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

2-mavzu. Muzey pedagogikasining metodologiyasi

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Muzey pedagogikasining metodologiyasi (2 soat)

O‘zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhalarida bo‘lganidek madaniy sohada, shu jumladan, boy o‘tmish merosimizni o‘rganish, saqlash hamda uni keng xalq ommasiga targ‘ib etish borasida ham tub burilish yasadi. Shu bois turizm sohasini rivojlantirish, uning xalqaro standartlarga moslashtirish bilan birga jamiyatimiz ongida ham turistik faoliyatga qiziqishni rivojlantirish, ta’lim tizimida uning nazariy va ilmiy asoslarini takomillashtirish bilan birga talaba-yoshlarni turizm faoliyatiga yo‘naltirishning «O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘srimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-son Farmoni, «O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmonida turizmga doir «xalqaro talablarga javob beradigan uzlucksiz, ko‘p bosqichli ta’lim tizimini yaratish, ...turizm sohasi xodimlari uchun majburiy malaka talablarini belgilaydigan standartlar ishlab chiqish»[1] ka bi huquqiy asoslar ham yaratilmoqda. Shuningdek, oliy ta’limda bo‘lajak kadrlarni turizm faoliyatiga yo‘naltirishning samarador metodologiyasi sifatida muzey pedagogikasining imkoniyatlaridan keng foydalanish, uning pedagogik shart- sharoitlarini oshirishga doir vazifalar dolzarblik kab etmoqda.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning zamonaviy tizimi tahlili o‘qituvchilar tayyorlashga yangicha yondashuvlarni izlash zarurligini ko‘rsatadi. Chunki kadrlar tayyorlashdagi muammolar va o‘qitish metodikasining eskiligi kuchli mutaxassislar tayyorlashdagi asosiy to‘siq bo‘lmoqda. Shu bois ta’lim sifatini oshirish, bu orqali kadrlar tayyorlashda yangi bosqichga chiqish va ularni zaruriy kompetensiyalar bilan qurollantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni turistik faoliyatga yo‘naltirish ham ularni o‘zgartirish yo‘lidagi muhim qadamlardan bo‘ladi. Shuningdek, ulardagi ichki iqtidor va qiziqishlarini namoyon qilish, o‘zi istagandek hayot kechirishga yo‘naltirishning samarali yo‘li hisoblanadi. Chunki turistik faoliyat har bir insonga kuchli ta’sir qiluvchi vosita, uni uyg‘otuvchi, hayotga boshqacha ko‘z bilan qarashga undovchi, ichki istaklari tomon undovchi motivatsion ta’sir hisoblanadi. Turistik faoliyat

bo‘lajak o‘qituvchilarning iqtidori va qobiliyatlarini ochuvchi, oshiruvchi omil hisoblanadi.

Muzey pedagogikasi bilan talabalar amaliyot yoki muzeylarga ekskursiya qilish, bu bilan bog‘liq seminar mashg‘ulotlarini o‘tkazish jarayonida duch keladilar. Oliy ta’lim muassasalarida muzey pedagogikasi fani o‘tilmaydi va shu bois talabalarning bu boradagi bilim va ko‘nikmalari ham unchalik yuqori bo‘lmaydi. Biroq muzeylarga tashrif buyuruvchilar yoki bu yerda bilimlarini oshirishga intiluvchi talabalarga muzey pedagogikasi asosida ta’sir ko‘rsatishi, ularni turistik faoliyatga yo‘naltirishi mumkin. Shu bois oliy ta’lim muassasalarida o‘tilayotgan ayrim fanlarni muzeylarda o‘tish, seminar mashg‘ulotlarini ko‘proq muzey eksponatlari bilan bog‘lab, o‘rganish orqali olib borish yoki amaliyot jarayonlarini muzeylarga biriktirish samarali hisoblanadi.

Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarni muzeylarga yo‘naltirish orqali ularning turistik bilimi va ongini oshirish mumkin bo‘ladi. Bilamizki, bir insonning biror joyga borish istagi o‘sha joy haqidagi ma'lumotlar asosida ortib boradi. Shu bois bo‘lajak o‘qituvchilarda turistik faoliyatga yo‘naltirishning eng samarali yo‘li bo‘lsa, ularning qiziqishlarini oshirish, emotsiyal va yuqori kayfiyatni hosil qilish bilan bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan muzey pedagogikasining talabalarni qiziqtirish imkoniyatlarini oshirish va uning ta’sirchanlik mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Misol uchun, Oliy ta’limning “Geografiya o‘qitish metodikasi” yo‘nalishi talabalari uchun o‘tiladigan “Umumiy tabiiy geografiya”, “O‘zbekiston geografiyasi”, “Aholi geografiyasi”, “Geografik o‘lkashunoslik”, “Amaliy geografiya”, “Geomorfologiya” kabi fanlarni muzeylar bilan bog‘lash, ular orqali talabalarning bilim va ko‘nikmalarini oshirish, amaliy mashg‘ulotlar asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash bilan birga turli faoliyat turlariga ham qiziqish va iqtidorlarini rivojlanтирish muhim vazifalardan biridir.

Oliy ta’lim tizimida “Tarix o‘qitish metodikasi” yo‘nalishi talabalariga o‘tiladigan “Muzeyshunoslik va arxivshunoslik”, “Tarixiy geografiya”, “Temur va temuriylar davlat tarixi”, “Jahon xalqlari epigrafiyasi”, “Tarixiy o‘lkashunoslik va urbanizasiya jarayonlari” kabi fanlarni muzey pedagogikasining yangicha metodologiyasi asosida hamkorlikda olib borish bo‘lajak o‘qituvchilarda tarixning bir parchasini va saqlangan qismini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish va nazariy bilimlarini, tasavvurlarini real voqelikda ko‘rish imkoniyatini beradi. Bu esa talabalarda tarixni chuqurroq o‘rganishga ishtiyoyq va qiziqishni oshirish bilan birga shu joylarga sayohat qilish istagini, emotsiyal layoqatni ham oshiradi. Buning natijasida bo‘lajak o‘qituvchilarda turistik faoliyatga bo‘lgan yondashuv o‘zgaradi.

Mamlakatimizda mavjud muzeylar va ularning muzey pedagogikasini tashkil etishdagi muammolar quyidagilardan iborat:

- O‘zbekiston muzeylarida muzey pedagoglari faoliyati to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmagan, ularda faqat eksponatlar bilan tanishtirib boruvchi va ma'lumot beruvchi xodim faoliyat yuritadi, xolos.

- Bo‘lajak o‘qituvchilarni muzey pedagogikasi vositasida turizm faoliyatiga tayyorlash tizimining yo‘lga qo‘yilmaganligi.

- hozirgi kunga qadar o‘qituvchilarga muzeyning ta‘lim-tarbiyaning samarali vositasi sifatidagi o‘rni noma'lum bo‘lib qolayotganligi.

- muzey pedagogikasining asosiy vazifasi tashrif buyuruvchilarga ham bilim berish, ham emotsiyal ta’sir ko‘rsatish bo‘lib, tomoshabinda eksponatning aslini ko‘rish, yoki uni qadrlash, hurmat qilish va chuqurroq o‘rganish istagini oshirish hisoblanadi. Shu ma’noda muzey pedagogikasi bo‘lajak o‘qituvchilarda turistik faoliyatga yo‘naltirishning aniq pedagoglarini tayyorlash va ularni faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish asoslari yuqori saviyada ishlab chiqilmagan.

Shuning uchun ta‘limni modernizatsiyalashning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lajak o‘qituvchilarni muzeylar bilan o‘quv faoliyati sohasida bevosita aloqalarga ega bo‘lgan oliv o‘quv yurtlarida tayyorlash lozim. Muzeylarda tashkil etilgan turli o‘quv kurslari, amaliyot va seminarlar bu vazifani faqat qisman bajarishi mumkin.

Muzeyga tashrif buyuruvchilar bilan ishlashga yangicha yondashuvlarni izlab, muzeylar so‘nggi yillarda ta‘lim muassasalari va pedagogika universitetlari bilan yangi, tizimli hamkorlik darajasiga erishish imkonini beradigan ta‘lim xizmatlarini qayta tuza boshlaganida vaziyat o‘zgara boshladи. Muzeylarning ta‘lim muassasalari bilan hamkorligi tajribasi barcha darajadagi san‘at va gumanitar ta‘limning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, ta‘lim muassasalari bilan o‘zaro aloqalar darajalari va yo‘nalishlarini aniq tashkil etishi kerak bo‘lgan tizimni ishlab chiqishga imkon berdi. Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, muzey pedagogikasi vositasida turistik faoliyatga yo‘naltirishning eng samarali modeli muzey-pedagogik dasturlari bo‘lib, muayyan muzeyning o‘ziga xos xususiyatlarini va zamonaviy pedagogik usullarni uyg‘unlashtirgan holda ishlab chiqilgan.

Mamlakatimizda bo‘lajak o‘qituvchilar tayyorlanadigan yo‘nalishlarning davlat ta‘lim standartlari taxlil etilganda muzey pedagogikasi, muzeyshunoslik va san‘at tarixi fanlari integratsiyasiga oid muhim mavzular kiritilmaganligi aniqlandi:

- muzey va ta‘lim muassasasi hamkorligining mohiyati va shakllari;
-ko‘rgazmali tafakkurning mohiyati va uning shaxs shakllanishi uchun muzey-

pedagogik usullari bilan rivojlanishining ahamiyatini fanlararo tushunish;

- muzey pedagogikasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari;

zamonaviy muzeyda Art terapiya (san‘at orqali davolash).

Oliy ta‘lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchilarni muzey-pedagogikasi faoliyatiga tayyorlashni bakalavriat yo‘nalishlari va magistratura

mutaxassisliklarida amalga oshirishi va qayta tayyorlash uchun imkoniyat yaratishi kerak. Shuningdek, ularni o‘qitish pedagogika kollejlarida yoki madaniyat va san‘at universitetlarida tashkil etilishi ham maqsadga muvofiq.

Oliy ta‘lim muassasalarida tayyorlanuvchi bo‘lajak o‘qituvchilar muzey pedagogikasi doirasida quyidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni ega bo‘lishi lozim:

- muzey va uning ijtimoiy-madaniy muassasalar tizimidagi o‘rni, muzey pedagogikasi tarixi haqida to‘liq tushunchaga ega bo‘lish;
- zamonaviy muzeydagi ta‘lim jarayonining o‘ziga xos xususiyatlari, muzey pedagogikasi umumiy pedagogik jarayonning bir qismi ekanligi haqida tushunchaga ega bo‘lishi;
- muzey va pedagogik faoliyatning zamonaviy muzey biznesi rivojidagi o‘rnini, uning ta‘limni insonparvarlashtirish, shaxs madaniyati va ijtimoiy munosabatlar madaniyatini shakllantirish muammolarini hal etishdagi ahamiyatini tushunish;
- ta‘lim va madaniy tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning umumiy va o‘ziga xos ehtiyojlarini aniqlay olish;
- muzey-pedagogik jarayoni davomida ushbu o‘zaro aloqalarni tashkil etish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- muzey pedagogikasining metodlari, shakl va texnologiyalarini bilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalana olish;
- muzey pedagogikasi nazariyasi va tarixiga oid bilimlar tizimini egallash;
- muzey o‘qituvchisining barcha muzeylarda va ta‘lim muassasalarida kasbiy faoliyati uchun badiiy qobiliyati va estetik g‘oyalarini rivojlantirish zaruriyatidan xabardor bo‘lish;
- muzey-pedagogikasiga oid maxsus adabiyotlarning birlamchi manbalarini bilish;
- muzey qadriyatlarini o‘zlashtirish jarayonini samarali tashkil eta olish va talabalarning muzeyga bo‘lgan qiziqishlarini muzey kommunikatsiyasiga tizimli kiritish zarurati darajasiga ko‘tara olish;
- muzey pedagogikasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari, metodikasi va tajriba ishlariga oid ko‘nikma va malakalarini egallash[3].

Agar muzey xodimlarining ishlari oliy ta‘lim muassasasining ta‘lim va amaliyot jarayoni bilan aloqador tarzda hamkorlikda olib borilsa, muzeylarda talabalar ta‘lim jarayonida uchratadigan, lekin hech qachon ko‘rmagan ekspozitsiyalar bilan tanishadilar. Muzeylar ekspozitsiyalari bilan ishslash jarayonida uning o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor berish muhim. Bunda quyidagilarga amal qilish zarur:

1. Muzeylardagi mashg‘ulotlar ma’lum ta‘limiy va tarbiyaviy maqsadni amalga oshirishi zarur.

2. Tanlangan materiallar talabalarga tushunarli va ularning turistik faoliyatini rivojlantirishga mos kelishi muhim.

3. Mashg'ulot uchun tanlangan ekspozitsiyalar ma'lum fanga doir mavzular bilan bog'liq bo'lishi maqsadga muvofiq.

4. Muzeylar bilan aloqa muntazam, izchil bo'lishi lozim.

Ma'lumki, har bir fan asosi u yoki bu ijtimoiy davrning muhim voqealari bilan bog'lab o'r ganilganda, adabiyot, san'at, tarixiy voqealar o'sha davrdagi muhim voqealar, adabiyot va san'at namoyondalarining o'z zamonasida tutgan o'rni, kiritgan yangiligi uning ijtimoiy hayot bilan bir qatorda rivojlanib, taraqqiy etganligi haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Shunga ko'ra, bo'lajak o'qituvchilar va muzey xodimlari faoliyatida o'zaro aloqadorlikni tashkil etishning o'ziga xos didaktik talablari, yo'nalishlari, tamoyillari va imkoniyatlari mavjud bo'lib, bular pedagogikadagi an'anaviy metodikaga qaraganda innovatsion xarakter kasb etadi.

Shu munosabat bilan universitet pedagogik jarayonida ta'limning mazmuni quyidagi vazifalarga qaratilgan bo'lishi lozim:

1. Erkin shaxsni tarbiyalash: yuqori darajadagi onglilik; fuqarolik, shaxsiy qadr-qimmatini his qilish; o'z-o'zini hurmat qilish, o'z-o'ziga talabchanlik, halollik, rostgo'ylik; hayotning ma'naviy qadriyatlariga yo'naltirish; shaxsiy qarorlar qabul qilishda faollik va mustaqillik, mas'uliyat.

2. Ijodkor shaxsini tarbiyalash: qobiliyat, bilim, ko'nikma, malakalarni rivojlantirish; sensorika, intelektni va intuitsiyani rivojlantirish.

3. Insonparvar shaxsni tarbiyalash: insonga xos sezgirlik, rahm-shafqat va mehr-oqibat, fidoyilik, bag'rikenglik, kamtarlik, hayot qadriyatlarini tushunish, dunyo, tabiat va boshqalarni anglash qobiliyatini tarbiyalash.

4. Shaxsning ma'naviy tarbiyasi: dunyoni doimiy ravishda bilish, o'zini, ruhiy dunyosini bilish, go'zallik, muloqot, mulohaza yuritish, hayot mazmunini izlashda o'z-o'zini bilish ehtiyoji; ichki shaxsiy olamning yaxlitligi va mustaqilligi.

Amaliy shaxsni tarbiyalash: iqtisodiyot asoslarini bilish; mehnatsevarlik, tejamkorlik; chet tillarni bilish, xalq hunarmandchiligi, diniy urf-odatlarni bilish;

sog'lom turmush tarzi; jismoniy tarbiya, estetik did, odob-axloq, yaxshi xulq, mehmondo'stlik, uyni tartibga solish, oila farovonligini ta'minlash istagi.

1. Yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalash: bilimdonlik, kompetentlik; boshqaruvchilik mahorati; kommunikativlik; ijodiy kasbiy fikrlash qobiliyati, turizm tarixi, nazariyasi va amaliyotini bilish; pedagogik mahoratni egallah; stressga chidamlilik, psixologiyani bilish.

Muzey pedagogikasi vositasida turistik faoliyatga yo'naltirish orqali bo'lajak o'qituvchilarda quyidagi umuminsoniy ijtimoiy, shaxsiy va umum madaniy kompetensiyalar shakllanadi:

- Gnostik kompetentlik: umumiy ta'lim, moslashuvchanlik va aqlning tanqidiyligi, zukkolik, ehtiyyotkorlik, analistik ko'nikmalar, bilimdonlik, yaxshi o'rganish qobiliyati, mantiqiylik, axborotni topish qobiliyati, asosiy narsani ta'kidlash, oqlash qobiliyati, tanlangan faktlarni taqqoslash, vaziyatni tahlil qilishda izchillikni namoyish etish, mantiqiy fikrlash, keyingi tanqidiy tahlil bilan taqqoslash, vaziyatni tahlil qilish, fikrning aniqligi, ifoda tiniqligi, murakkab o'quv vazifalarni tahlil qilish va yordam holda ularni amalga uchun o'z yondashuvlarni topish, o'z - o'zini tanqid qilish uchun tayyorligi.

- Axloqiy va irodaviy kompetentlik: axloqiy va huquqiy normalarni foydalanish qobiliyati, fuqarolik, qonunga bo'ysunish (huquqiy madaniyat), shu jumladan, bag'rikenglik, ijtimoiy moslashish qobiliyati, madaniyat qadriyatlarini tushunish va ularga riosa qilish, faoliyat, maqsadga muvofiqlik, optimizm, o'z o'ziga ishonch, topqirlik, xohish-istikclarini tahlil qilish va ulardan ustuvor bo'lganlarini tanlash, maqsadni belgilay olish, o'z ikoniyatlarini real baholash qobiliyatini, o'z faoliyatini rejalashtirish qobiliyati, vazifalarni belgilash va bajarish mustaqilligi, qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, qiyin vaziyatda tez harakat qilish va vazifalarni hal qilish qobiliyati, tanqidiy nuqtai nazar bilan qarash qobiliyati, o'z nuqtai nazarini ifoda qilish qobiliyati, majburiyatlarini bajarish, maqsadlarga erishishda qat'iyat, chidamlilik, stress va vaqtni boshqarish, to'plangan tajribani tanqidiy qayta ko'rib chiqish qobiliyati.

Kommunikativ kompetentlik: ijtimoiy munosabatlar madaniyati ko'nikmalari, ijtimoiy hamkorlik (ijtimoiy interaktivlik), jamoada ishlar, shaxslararo munosabatlar ko'nikmalari, hamdardlik, odamlarga hurmat, mehribonlik, xushmuomalalik, yaxlitlik, muloqot qilish qobiliyati, moslashuvchanlik, axborot berish qobiliyati, ishontirish qobiliyati, nutqning intonatsion xususiyatlarini bilish bilan bog'liq muammoni to'g'ri va ifodali tarzda taqdim etish qobiliyati, aloqa ko'nikmalari, boshqa shaxsning his-tuyg'ulariga kirib borish, unga hamdardlik, o'z pozitsiyasini egallash, his-tuyg'ular ifodasini nazorat qilish qobiliyati, vaziyatni anglash, axloqiy qadriyatlarga va ijtimoiy mas'uliyat prinsiplariga riosa qilish, mustaqil va jamoada ishslash, odamlarga rahbarlik qilish va itoat qilish qobiliyati.

- Tashkiliy kompetentlik: sog'lom turmush tarzi normalarini bilish va anglash, jumladan, sog'lom turmush tarzi va jismoniy madaniyatga bo'lgan ehtiyojni anglash, qat'iyatlilik, chidamlilik, uyushqoqlik, mas'uliyat, muloyimlik, jasorat, majburiyat, intizomlilik, faollik, tashabbuskorlik, o'z-o'ziga ishonch, vaqtni boshqarish qobiliyati, boshqalar faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilish qobiliyati.

Shunday qilib, bir qator kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan muzey pedagogikasi va muzey turizmi talabalar bilan ishslashning pedagogik jihatdan ko'p qirrali shakli sifatida qaralishi lozim. Undan yanada samarali

foydanishning muvaffaqiyati bo‘lajak o‘qituvchilarning ilmiy va kasbiy professionalligi bilan bog‘liq.

Muzey ta’limning nazariy va amaliy komponentlarini birlashtirilib, materialni to‘liq o‘zlashtirish hamda mustahkamlash va takro rlash jarayonini takomillashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bilim olish jarayoni qiziqarli tarzda qabul qilinadi, bu esa o‘rganish va ilmiy yutuqlarga ijobiy turtki beradi. Muzey pedagogikasi ta’lim va tarbiya jarayonida ta’lim muassasalari va muzeylar o‘rtasida vositachi sifatida qo‘llaniladi, bu esa pedagogik usullarning to‘liq tarbiyaviy salohiyatini olib berishga imkon yaratadi. Muzey pedagogikasi muzey materiallarini taqdim etish shakli sifatida ochiq muzey muhitida pedagogikaning umumiy tamoyillarini foydanishni o‘z ichiga oladi. Muzeydagi pedagogik yondashuvga ko‘ra har bir tashrif buyuruvchi muzey ko‘rgazmalarini passiv tafakkur etibgina qolmay, muzey muhitida amalga oshiriladigan aloqa jarayonining faol ishtirokchisi sifatida qaraladi. Muzey pedagogik faoliyati ma'lum bir auditoriya uchun muzey tadbirlari tizimi yoki sikliga asoslangan bo‘lib, idrok markazi muzey ob'ekti hisoblanadi. Shu bilan birga muzey pedagogikasi faol ta’lim texnologiyasi sifatida talabalarni muzey ekspozitsiyalari va ko‘rgazmalar, ekskursiyalar yaratish jarayoniga faol jalb etishga qaratilgan.

2-mavzu. Muzeyda fond ishi (4 soat)

Jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, internetning beqiyos imkoniyatlaridan keng foydanishga tayyor bo‘lish matbuot, axborot va media tarmoqlariga katta e’tibor qaratish zarur. Muzeylarni kompyuterlashtirish jarayoni xorij davlatlarida 1960 yillarda boshlangan edi va bu sohada etakchi o‘rinni AQSh muzeylari egallagan edi. Mana shu o‘n yillik boshlarida Amerikalik olim Devid Vene universitetlarning birida o‘rnatilgan hisoblash mashinasidan uncha katta bo‘lмаган muzey kolleksiyasi haqida ma’umotlar ishlab chiqish maqsadida foydalandi. Perfokartalarga ko‘chirilgan muzey predmetlari haqidagi ma'lumotlar mashinaga kiritilib, berilgan buyruqlarga asosan saralangan hamda katalog formasida qog‘ozga chiqarilgan. Bu EHM yordamida chiqarilgan birinchi muzey katalogi edi.

1980 yillar boshlaridan muzeylarda kompyuter tizimini yo‘lga qo‘yish va undan samarali foydanish davri kirib keldi. Endi ishlab chiqish bo‘yicha alohida entuziastlar emas, balki malakali mutaxassislardan tashkil topgan yo‘naltirilgan guruhlar shug‘ullanar edi. Bu guruhga tizim texniklari, dasturlovchilar va muzeyshunoslar kiradi.

Natijalar uzoq kutilmadi: aynan shu yillarda tarix va madaniyat yodgorliklari

haqidagi kompyuterlashtirilgan ma'lumotlar omborini yaratishga qaratilgan bir necha jiddiy tadqiqotlar olib borildi. Masalan, Fransiyada Milliy meros bo'yicha ma'lumotlar ombori tuzildi. Bu ma'lumotlar ombori tizimi tashkil qilinayotgan loyihaning klassik namunasi bo'lib, hozirgi kunga qadar faoliyat yuritib kelmoqda. Xuddi shu yili Amerika muzeylarini kompyuterlashtirishning kuchli to'lkini yuz beradi (birinchi navbatda Smitson instituti), analogik ishlar esa Kanadada Milliy meros bo'yicha Kanada axborot tarmog'i nazorati ostida o'tkaziladi (CHIN), Buyuk Britaniyada esa Muzey xujjatlashtirish Assotsiatsiyasi qo'l ostida o'tkazildi (AMD).

Bu yillar davomida to'plangan malakalar shuni ko'rsatdiki, hech bir muzey, hattoki eng katta muzeylar ham muzey talablariga javob bera oladigan ma'lumotlar omborini yaratishdagi bir kator ishlar kompleksini yakka holda eplay olmas ekan. Shuning uchun muzey mutaxassislari va axborot texnologiyalari mutaxassislari birlashtirilib, milliy hamda xalqaro assotsiatsiyalar tuzildi.

IKOM tashkiloti qo'l ostida 1970 yildan buyon kompyuterlar asosida kolleksiyalarni qayta ishslash va hisobga olish ishlarini yo'lga qo'yishga eng katta e'tibor qaratayotgan Muzey Hujjatlashtirish Komiteti CIDOC tashkil topdi. Turli mamlakatlardagi mutaxassislar bu erda ishlab, a'zo davlatlardagi kompyuterlashtirish holati haqida bir-birlarini xabardor qiladilar, malaka almashadilar, muhim muammolar bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqadilar, xalqaro ilmiy dasturlar bo'yicha ish tashkil etadilar.

1985 yilda sobiq SSSR Madaniyat Vazirligi topshirig'iga binoan muzey kolleksiyalari haqidagi Avtomatlashtirilgan Axborot Tizimi (AIS)ni tashkil qilish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqildi. Avval boshdanoq bu tizim ierarxik prinsiplarga asosan tashkil qilinishi taxmin qilingan edi (AIS alohida muzeylar uchun, tematik yoki regional prinsiplarga asosan birlashtirilgan muzeylar guruhi hamda davlat darajasidagi muzeylar uchun). Kelib chiqishiga binoan AIS birinchi davlat axborot muzeylar tarmog'i modelidir.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, davlatning 90% muzeylarini regional muzeylar tashkil etadi va bu muzeylar fondlarining hajmi 20-25 mingdan oshmaydi, faqatgina 0,5 foiz muzeylar fondi 500 mingdan ziyod eksponatga ega.

1990 yilning birinchi yarmida yangi bosqich kirib keldi: matnlarni qayta ishslash dasturlari o'mini yangi texnologiya - multimedia egalladi. Multimedia nafaqat matnli ma'lumotlarni, balki tasvir, ovozli, videofragmentlar va animatsiyalarni ham namoyish eta oladi. Bu esa muzey faoliyatida kompyuterlardan foydalanish doirasini kengaytirdi. Dunyoning deyarli barcha muzeylari bugun mana shu texnologiyadan foydalanadi.

1990 yilning boshidan kompyuterlar nafaqat yirik, balki kichik regional muzeylarga ham kirib keldi va AIS muzey xodimining ish quroliga aylandi (Rossiyada 1990 yilning oxiriga borib qariyb 300 ta muzey kompyuterlashtirildi).

Bu tizim yordamida echiladigan masalalar muzey faoliyatining asosiy spektrini tashkil etadi: ro‘yxatga olish va fond ishi, ilmiy va restavratsiya ishlari, ekspozitsiya hamda ko‘rgazma ishlari va muzeyning nashriyot ishlari.

Muzeyga o‘rnatilgan kompyuterlar lokal tarmoq orqa li birlashtiriladi. O‘z-o‘zidan muzeylarni kompyuterlashtirish bo‘yicha ishlar tashkilotining o‘zi ham o‘zgaradi. Endi AISni ishlab chiqish bo‘yicha alohida guruhlar emas, maxsus firmalar (masalan, chet elda System Gallery, Image Finder, Rossiyada Alt-Soft, Главный информационно-вычислительный центр Минкультуры России) shug‘ullana boshladi, xalqaro aloqalarning roli kuchaydi (CIDOC konferensiyalari, AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya milliy assotsiatsiyalari mutaxassislari bilan aloqalar o‘rnatildi).

1990 yilning o‘rtalaridan muzey mutaxassislari diqqat-e’tiborni kompyuter kommunikatsiyasi muammosiga qaratadilar. Muzeylar (shu qatorda uncha katta b o‘lmagan muzeylar ham) Internetga kirish huquqiga ega bo‘ldilar.

O‘zbekistonda muzey ishini informatizatsiyalash mustaqillik yillarida shakllana boshladi. Har bir muzey o‘z qarashlaridan kelib chiqqan holda, multimedia kontinenti loyihalarini ishlab chiqmoqda. Yangi multimedia texnologiyalarining ishlab chiqilishi tomoshabinlar va muzey xodimlari uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Yirik xorijiy muzeylar faoliyati rivojlanishi jarayonida davlat Multimedia Markazi maxsus tashkiloti ishlab chiqqan va muzeylar ixtisosligi bo‘yicha moslashtirilgan loyihalar muhim ahamiyat kasb etmoqda[1.33]. Rossiya multimedia markazi rahbari Darya Losevaning fikricha, muzey ekspozitsiyasiga odatda chegaralangan predmetlar majmuasi qo‘yilib, qolgan qismi esa fondlarda qolib ketadi. Muzey predmetlarini to‘laligicha raqamli ko‘rinishga o‘tkazish, ularni diqqat bilan kuzatish va fondlarning saqlov rejimini o‘rganish borasida engilliklar yaratadi. Bu muammolar borasida bir qancha e^t^ ishlab chiqilgan. Bular orasida eng ko‘p qo‘llaniladigan uslub kompakt disk va internet saytlarida elektron nashrlarni joriy etish hisoblanadi. Elektron nashrlar kitob nashrlaridan chegaralanmagan matn, illyustrativ material va bir qancha xorijiy tillarni umumlashtirgan ma'lumotlar muzeylar qanday qiziqarli fond to‘plamlariga ega ekanligi haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, internetning tez qidiruv tizimi jarayonlarini modelirovka qilish doirasida vaqt hamda harakat birligini uyg‘unlashtirgan holda texnologik virtual haqqoniylilikni aks ettiradi. Aynan shu ko‘rsatmalar asosida multimedia tasvir va ashylarni hajmiy joylashtirish va ko‘rish e^t^it ham beradi. Muzey va ko‘rgazmalarda virtual panorama va virtual ekspozitsiyalar yaratish, yo‘qotilgan eksponatlarni modelirovka qilish yoki rekonstruksiya qilish imkonini beradi. Tomoshabin faqatgina ekskursiyani tinglabgina qolmay, eksponatni sinchiklab o‘rganishi ham mumkin. San’at va tarix muzeylarida shu uslubni qo‘llash mumkin. Virtual texnologiya tomoshabinga

muzey ekspozitsiyalari bilan sirtdan tanishish imkonini ham yaratadi.

London muzeyidagi informatsion resurslar bo‘limini boshqargan, hujjatlashtirish bo‘yicha Xalqaro komitetning (IKOM - CIDOC) faol a’zosi Endryu Roberts muzey hujjatlari ustida o‘ttiz yillik izlanish faoliyatini yuritgan. Uning mazkur sohada ishlab chiqqan standartlari va tizimlari ko‘plab muzeylar faoliyatida qo‘llanilib kelinmoqda. Endryu Roberts o‘zining “Hisobga olish va hujjatlashtirish”[2.34] maqolasida izlanishlari samarasini aniq ko‘rsatmalar bilan bayon etgan. Uning fikriga ko‘ra, kolleksiya tarkibiga kirgan har bir eksponat haqida muzey hujjatlashtirilgan yozuvlar olib borishi va eksponatdan foydalanish yoki izlanishlar darajasida mazkur yozuvlarni davom ettirib turish lozim. Ma'lum bir qabul qilingan qoidalarga asoslangan kataloglashtirish tizimini standartlariga mos keluvchi jadvalning mavjudligi eksponatning harakati va saqlanish holatini belgilab turishga imkon yaratadi. Endryu Roberts maqolada barcha turdag'i muzeylarni hujjatlashtirish va hisobga olish tizimini mustahkamlovchi jadvalni taqdim etadi. Unda tavsiya etilgan metodik ko‘rsatmalardan foydalanish natijasida har bir muzey (hoh u badiiy, tarixiy yoki tabiiy-ilmiy muzey bo‘lsin) kolleksiyalari va faoliyati xususiyatiga ko‘ra eksponatlarni kataloglashtirish va pasportini yaratish imkoniyatiga ega. Xususan, muzey eksponatlarini inventarlashtirish va katalog tizimini yaratish bo‘yicha o‘zining ichki instruksiyalari asosida yangi jadvalni ishlab chiqishi muzey ishi faoliyatida samarali natijalarni beradi. Chunki, Endryu Roberts tavsiya etayotgan jadvaldagi eksponatning sifatlarini belgilovchi 50 asosiy xususiyatlar beshta loyihada ishlab chiqilgan g‘oyaga asoslangan bo‘lib, dunyoning ko‘plab muzeylarida amalga oshirilgan. Shuningdek, mazkur jadvalning umumiyligi yondashuvi AFRICOM standartlari ma'lumotnomasiga asoslangan bo‘lib, AFRICOM standarti esa o‘z o‘rnida IKOMning hujjatlashtirish bo‘yicha Xalqaro komitetining metodik qo‘llanmalariga asoslanadi.

O‘zbekiston muzeylaridagi o‘ziga xosliklarni inobatga olgan holda, Endryu Robertsning tavsiyalari asosida ishlab chiqilgan badiiy xususiyatga molik eksponatlarni hujjatlashtirish ishida qo‘l keluvchi jadval ilovasidan ham keng foydalanish mumkin. Jadval badiiy yodgorliklarga ega bo‘lgan barcha muzeylarda arxiv qog‘oz sifatidagi pasport va kataloglarda muhrlanuvchi ma'lumotlar tizimi standarti sifatida xizmat qilishi mumkin. Yetti bo‘limdan iborat bo‘lgan jadvalning har bo‘limi alohida aniq ma'lumotlarni belgilash uchun mo‘ljallanadi. Bu bo‘limlar badiiy muzeylarning o‘ziga xos xususiyati va faoliyatlarini o‘rganib chiqish natijasida jadval asosiga kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 oktyabrdagi “Muzeylar faoliyatiga taaluqli me'yoriy hujjatlar to‘g‘risida”gi 237-sonli, 2010 yil 12 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash

haqida”gi 68- sonli Qarorlarida Milliy muzey fondi to‘g‘risidagi va Milliy muzey fondining Davlat katalogi to‘g‘risidagi Nizomlar ishlab chiqildi. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, Milliy muzey fondining Davlat katalogini shakllantirish va yuritish tartibini belgilaydi. Davlat katalogi - milliy muzey fond tarkibiga kiritilgan har bir muzey ashyosi va har bir muzey kolleksiyasi to‘g‘risida asosiy ma'lumotlar mavjud bo‘lgan hisobga olish hujjatidir. Davlat katalogi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan yuritiladi hamda elektron va bosma ma'lumotlar bazasi ko‘rinishida shakllantiriladi [3].

“SKM-MUZEY” dasturi O‘zbekiston Respublikaining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 31 oktyabrdagi “Muzeylar faoliyatiga taaluqli me'yoriy hujjatlar to‘g‘risida”gi 237-sonli, 2010 yil 12 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonunini ro‘yobga chiqarish uchun zarur bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida”gi 68- sonli Qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida Madaniyat va sport ishlari vazirligitasarrufidagi Sertifikatsiya va kompyuterlashtirish markazi tomonidan ishlab chiqilgan.

Avtomatlashtirilgan “SKM-MUZEY” dasturi respublika muzeylari ashyolarining Milliy muzey fondining yagona elektron katalogi elektron katalogiga kiritish va ro‘yxatdan o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Ushbu dasturni yaratish jarayonidamuzeylar fondidagi eksponatlar harakatini nazoratga olish, yagona bazani shakllantirish borasidaga jahon tajribasi o‘rganib chiqilgan. Jumladan, Rossiya, AQSh va Yevropa mamlakatlari etakchi muzeylarining «Kamis», «MUZEY», «Muzeolog» va boshqa dasturlari tahlil qilingan.

Mazkur dastur mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan barcha turdagи muzeylarda saqlanayotgan har bir muzey ashyosi va muzey kolleksiyasi to‘g‘risida asosiy ma'lumotlar manbai - Milliy muzey fondining yagona elektron katalogidir.

Davlat katalogini yaratish jarayoni mamlakatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan muzey Музей - халқ тарихининг кўзгуси. //Тузувчи К.Нишонова. Т., 2011 й. lariga toifa berish, muzeylarda saqlanayotgan muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini qayta ro‘yxatdan o‘tkazish va muzey xodimlarining malakasini oshirish tadbirlarini o‘z ichiga oladi.

3-mavzu. Ekskursiyashunoslik (4 soat)

Muzeylar har xil turdagи. Masalan, tarixiy muzey Tarixdagи muhim voqealar haqidagi ma'lumotlarni saqlaydigan A. Etnografik muzey marosim va an'analar haqida hikoya qiladi turli xalqlar. Unda noyob madaniy yodgorliklar: milliy liboslar, uy-ro‘zg‘or buyumlari, e’tiqod va xalq og‘zaki ijodi va boshqalar mavjud.

O'lkashunoslik muzeyi sizni o'tmish bilan tanishtirishi mumkin ona yurt. Muzey zallarini kezib, o'tmish bilan tanishamiz. Har qanday muzeysda juda muhim shaxs bu qo'llanma bo'lib, uning hikoyasi yordamida siz eksponatlar va hikoyalarni taqqoslashningiz mumkin, keyin rasm yanada to'liqroq bo'ladi. Yo'lboshchiga savollar berishingiz mumkin, u doimo o'z vaqtida va batafsil savolga ega bo'ladi.

Bir kuni, G'alaba bayrami oldidan sinfimiz bilan shahar muzeyimiz – Harbiy shon-shuhrat muzeyiga borishga qaror qildik, u yerda ochiq haftalik o'tkazildi. Bizni muzey xodimi kutib oldi, u biz bilan salomlashdi va o'zini tanishtirdi, Ulug' Vatan urushi tarixini bilish haqida bir necha savollar berdi, biz ularga ishtiyoq bilan javob berdik. U bizga muzeyda shahrimiz qahramonlarini ko'rishimizni, ularning hikoyalarni eshitishimizni aytdi.

Zalga kirganimizda, o'tmishga sho'ng'ib ketgandek bo'ldik. Xona bir vaqtning o'zida harbiy shtab va arxivga o'xshardi, gid ular saqlanib qolgan xatlar, fotosuratlar, buyruqlar, ofitser planshetlari va boshqalardan foydalanganliklarini aytdi. Atrofda hamma narsa quyuq ranglarda bo'lib, kulrang, to'q ko'k, xaki va jigarrang ranglar hukmronlik qilgan. Devorlarda ko'plab portretlar, medallar, shiorlar bor edi. Gidning hikoyasi bizda chuqur taassurot qoldirdi, u urush paytida hamma narsadan ayrılgan, ammo baribir taslim bo'lмаган, oxirigacha kurashgan shahrimiz aholisi haqida gapirib berdi. Muzeyga tashrif buyurganimizdan so'ng, biz uzoq vaqt indamay yurdik, har birimiz sovet xalqining muhim jasorati haqida o'yadik, har birimizning ko'zlarida minglab odamlarning osuda osmoni uchun qayg'u va minnatdorchilik bor edi. Endi hech birimiz G'alaba sharafiga paradga borishga arziydimi, deb shubhalanmaymiz.

Ekskursiyani o'tkazish juda murakkab va ko'p vaqt talab qiladigan jarayon bo'lib, u nafaqat tarix va madaniyatshunoslik sohalari bo'yicha chuqur bilimlarni, balki ritorika va psixologiya ko'nikmalarini ham talab qiladi. Ekskursiyani tayyorlashning eng muhim bosqichi uning rejasini tayyorlashdir.

Tegishli maqolalar

Ekskursiyani qanday yozish kerak

Ekskursiyaga qanday borish mumkin

Ekskursiyani qanday tanlash kerak

Qanday qilib yaxshi qo'shiq yozish kerak

Kuz haqida insho qanday yoziladi

Muzeyga qanday ekskursiya qilish kerak

Ko'rsatma

Qoida tariqasida, ekskursiya rejasini yozish ikki bosqichdan iborat: marshrutni ishlab chiqish va ekskursiya matnini yozish.

Ekskursiyani rejalanشتirishni boshlashningiz kerak bo'lgan birinchi narsa marshrutni ishlab chiqishdir. Agar ekskursiya bir joyda (saroy, muzey va boshqalar)

rejalashtirilgan bo'lsa, bino (yoki hudud) rejasiga muvofiq guruhning ushbu joy atrofida harakatlanish sxemasini o'ylab ko'ring. Ekskursiya qayerdan boshlanishini, guruh har bir eksponat yonida qancha vaqt sarflashini, ekskursiya jami qancha davom etishini va qancha vaqt tugashini yozing. Agar siz bir nechta diqqatga sazovor joylarni ziyorat qilish bilan shahar sayohatini rejalashtirmoqchi bo'lsangiz, yo'llardagi vaziyatni hisobga olgan holda optimal harakat sxemasini ishlab chiqqan holda sayohat avtobusining marshrutini ham rejalashtiring.

Ikkinchi bosqich - ekskursiya matnini yozish. Matn unga zid bo'lmasligi kerak tarixiy faktlar, shuning uchun ekskursiya yozayotganda, ma'lumot oladigan manbalarga murojaat qiling. Axir, agar ba'zi tinglovchilar siz bilan rozi bo'lmasa va aytilganlarga qarshi chiqishga harakat qilsa, siz doimo unga ma'lumotlaringiz qayerdan kelganini va uni qanday tekshirishni aytasiz. Shu bilan birga, esda tutingki, matn nafaqat ma'lumotli, balki zerikarli bo'lmasligi, tinglovchilarning e'tiborini jalg qilishi kerak.

Ekskursiya matni yozilganda, uni marshrut bilan o'z vaqtida moslang, shunda har bir eksponat haqidagi hikoyangiz ekskursiya guruhi uning yonida o'tkazishi kerak bo'lgan vaqtini oladi.

Foydali maslahat

Ekskursiyani qiziqarli qilish uchun ob'ektlarni ko'rsatish va ular haqida gapirish o'rtasida muvozanatni saqlash muhimdir. "Quruq" informatsion uslubga rioya qilmang: bu joylar ismlari bilan bog'liq bo'lgan mashhur odamlarning hayotidan hikoyalarni qo'shing, hikoyangizga ozgina hazil qo'shing. Bu sayyoqlik guruhining e'tiborini jalg qilish va tomoshabinlarni zeriktirmaslikka yordam beradi.

Spektakl haqida insho yozish

Insho yozishni boshlashdan oldin dramatik asarning badiiy adabiyot janrlaridan biri sifatida sahnalashtirishga mo'ljallanganligi bilan lirika va dostonidan jiddiy farq qilishini eslaylik. Uning mazmuni nutqlar, personajlarning dialog (ikki yoki undan ortiq personajlar o'rtasidagi suhbat) va monolog (nutq, hikoyalar, birinchi shaxsda fikr va his-tuyg'ularni ochish) shaklidagi suhbatlaridan iborat. Qahramonlarning nutqi mulohazalar bilan birga keladi - muallifning harakatni to'xtatish to'g'risidagi ko'rsatmalari, qahramonlarning ichki holati, xatti-harakati, ularning yuz ifodalari va imo-ishoralari haqida. O'qish drama janri haqida to'liq tasavvur bera olmaydi, chunki sahnada ijro etish jarayonida so'z san'ati aktyorlik san'ati bilan to'ldiriladi: biz personajlarni eshitamiz, ularning harakatlarini ko'ramiz, qahramonlar hayotining guvohi bo'lamiz. ko'z oldimizda sodir bo'layotgan drama haqida. Sahna dekoratsiyasi (manzara, liboslar, yorug'lik, rekvizitlar), musiqa spektakl taassurotlarini to'ldiradi va oshiradi. Yunoncha "drama" so'zi "harakat" degan ma'noni anglatadi. Dramatik asarda voqealar harakati, qarama-qarshi kuchlar va personajlarning to'qnashuvi va kurashi ayniqsa

keskin va keskin kechadi. Voqealarning o‘zi juda oddiy va oddiy bo‘lishi mumkin, lekin har bir so‘z, har bir harakat personajning xarakterini, motivlarini, ijtimoiy qiyofasini, hayotdagi va ijtimoiy muhitdagi o‘rnini ochib beradi. Asosiy turlari dramatik asarlar Tragediya, drama, komediya. Komediyada jamiyat hayotining ayrim qirralari, odamlar xarakteridagi salbiy xususiyatlar masxara qilinadi. Komedianing ajoyib namunalari rus klassik dramaturgiyasi tomonidan taqdim etilgan bo‘lib, unda eng o’tkir, dolzarb ijtimoiy muammolar birinchi navbatda qo‘yilgan va hal etilgan.

Komediya muallifi g‘oyalarini tomoshabinga yetkazishdek eng muhim vazifani spektakl rejissyori va aktyorlari qanday uddalaganiga siz va men yozma ravishda baho berishimiz kerak bo‘ladi.

2013-2014 o‘quv yili Moskva shahridagi 37-son GBOU o‘rta mакtabining 2 "B" sinf o‘quvchilari

4-mavzu. Muzey ishining tashkiliy-huquqiy asoslari (2 soat)

O‘zbekistonda muzeylarni yangi tarixi 1992-yildan boshlandi va shu yilning o‘zida juda ko‘plab yangi muzeylar tashkil etildi masalan buyuk o‘zbek shoirlaridan biri Boborahim Mashrabning muzeyi Namanganda tashkil etildi, yana Xorazmda hofiz Hojixon Boltaboyev nomi bilan ataluvchi maqomchilar muzeyi, Urganch shahrida „Xorazm amaliy sanati va tarixi“ muzeyi, Buxoroda „Temirchlik muzeyi“, Samarqand viloyatida xalq kuychisi (baxshisi) Islom shoir Nazar o‘glining uy muzeyi tashkil etildi.

Keyinchalik 1993-yilda ham bir nechta muzeylar o‘z ishlarini yo‘lga qo‘ydilar, ular orasida Toshkentda ochilgan O‘zbekistondagi birinchi huquqshunos olima ayol Xadicha Sulaymonova muzeyi, mashhur raqqosa Mukkarramaxonim Turg‘unboyeva muzeyi, mashxur cho‘pon, mehnat qahramoni Jonboy Bashmanov muzeyi Navoiyning Tomdi tumanida tashkil etildi. 1994-yilda xalq rassomi Muhiddin Rahimov muzeyi, 1996-yilda juda katta ahamiyatga ega bo‘lgan O‘zbekiston gidrometerologiya muzeyi, Salim Hamidovning uy muzeyi 1997-yilda tashkil etildi.

E’tiborga loyiq voqealardan biri 1996-yil 1-sentabrda Osiyoda yagona bo‘lgan Olimpiya shon shuhrati muzeyi ochilishi bo‘ldi, bu muzey O‘zbekistonlik sportchilarning jahon miqyosida erishgan yutuqlari va ishtiroklari haqida ko‘plab malumotlar beradi. O‘zbekistonda muzeylar rivojiga 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan „Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to‘g‘risidagi“ qonun juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi, shundan keyin muzeylar davlat muhofazasiga olindi va muzeylarni yanada rivojlantirish haqida dastur ishlab chiqildi va ular davlat budgeti tomonidan qo‘llab quvvatlandi. 1998-yilda

O‘zbekmuzey tashkiloti tashkil etildi va 1999-yilda muzeylar hayotidan xabar beruvchi Moziydan sado jurnalni tashkil etildi. Bu jurnal uch tilda O‘zbek, Rus va ingliz tilida chop etila boshlandi. 121999-yilda O‘zbekistonda davlat tasarrufidagi muzeylar soni 81 taga yetdi, ulardan 15 tasi tarix muzeyi, o‘lkashunoslik muzeylari soni 23 tani va 10 ta badiiy muzeylar, 20 ta memorial, 8 ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylarini tashkil etildi. O‘zbekistondagi 10 ta yirik shahar tarixiy shaharlar ro‘yxatga olingan hisoblanadi masalan:Buxoro, Samarqand,Xorazm,Qo‘qon va boshqalar. Ayniqsa Samarqand juda ham tarixiy obidalarga boy shahar hisoblanib har yili juda ko‘p xorijiy mehmonlar tashrif buyuradi.

Hozirda O‘zbekiston madaniyat vazirligi tasarrufidagi muzeylar 1.350 ming eksponatga ega.

Har bir davlat taraqqiyot sari odimlar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar hamda qadimiy yodgorliklarni o‘rganishga va saqlashga intilishi tabiiy hol. Bu borada esa muzeylarning o‘rni beqiyos. Chunki ular o‘tmishdan kelgan madaniyat, ma’rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimga solingan yig‘indisi bo‘lib, amaldagi tartiblarga muvofiq saqlanadi va namoyish qilinadi.

1977 yildan buyon dunyoda an’naviy tarzda 18-may Xalqaro muzeylar kuni sifatida nishonlanib kelinmoqda. Joriy 2018 yilgi Xalqaro muzeylar kuni «Muzeylarda zamonaviy texnologiyalar: muzey va ko‘rgazmalar uchun innovatsion yechimlar» shiori ostida o‘tkazilmoqda.

Mustaqillik yillarda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan tarixiy merosimizni o‘zida saqlovchi muassasa hisoblangan muzeylar rivojiga alohida e’tibor qaratildi. Mazkur sohaning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.¹³

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, Islom Karimov yurtimiz tarixini, ko‘p yillik merosini o‘zida mujassam etgan muzeylarni tashkil etish bo‘yicha bir qator amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, 1994 yilda “O‘zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Natijada yurtimiz tarixini o‘zida to‘liq aks ettiruvchi 3 mingdan ortiq asori atiqalar va noyob eksponatlarga ega muzey tashkil topdi.

Yurtimiz tarixida o‘chmas iz qoldirgan tarixiy shaxslarimiz nomini tiklash va ularning boy moddiy-madaniy merosni yosh avlodga yetkazib berish borasida samarali ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 1996 yil 18 oktabrda buyuk sohibqiron Amir Temur tavalludining 660 yilligi munosabati bilan yurtimizda yangi bir muzey - Temuriylar tarixi davlat muzeyi o‘z faoliyatini boshladi. Islom Karimov mazkur muzeyning ochilish marosimida ushbu muzeyga nisbatan shunday ta’rif bergen edilar: "Temuriylar tarixi davlat muzeyi sohibqiron shaxsiyatiga nisbatan yurtimizda tarixiyadolat tantana qilganining yana bir amaliy isbotidir.

Aytish mumkinki, Amir Temur hiyoboni go‘zal bir uzuk bo‘lsa, bu muzey shu uzukning yoqt ko‘zidir. Muzeyni ziyyorat qilgan har bir inson mening so‘zlarim

shoirona tashbeh yoki mubolag'a emasligiga ishonch hosil qiladi. Bu muzeyda bizning o'tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisoliko'zguda aks etgandek namoyon bo'ladi".

1997 yilda O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan o'zining salohiyati hamda badiiy ijod sohasida mutaxassis kadrlarni yetkazib beruvchi Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan oliy ta'lim muassasasi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti tashkil etilib, Institut qoshida esa ilk bor muzeyshunos mutaxassis kadrlarni tayyorlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan yo'naliш ochildi. Bu albatta, O'zbekiston tarixida muzeyshunoslikning fan sifatida rivojlanishi uchun qo'yilgan tamal toshi bo'ldi desak, mubolag'a bo'lmaydi.O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1998 yil 12 yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risidagi" Farmoniga muvofiq Respublikamizdagi Madaniyat ishlari vazirligi, boshqa vazirlilik va idoralarga tegishli barcha turdag'i mavjud muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ko'llab-quvvatlash va ularga zarur ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatishni ta'minlash maqsadida Madaniyat ishlari vazirligi qoshidagi Muzeylarni qo'llab-quvvatlash respublika "O'zbekmuzey" jamg'armasi tashkil qilindi.

Mazkur farmonga muvofiq mamlakatimiz aholisining muzeyshunoslik madaniyatini oshirish, ularni merosimiz va qadriyatlarimizdan xabardor qilib borish hamda mutaxassislar, muzey xodimlarining muzeyshunoslik sohasidagi ilmiy ishlarini chop etish, bu sohadagi yutuqlarni targ'ib qilish, muzey xodimlarining kasbiy malakasini oshirish maqsadida uch oyda bir marta o'zbek, ingliz va rus tillarida chop etiladigan ilmiy-amaliy, ma'naviy ma'rifiy, rangli "Moziydan sado" jurnali ta'sis etilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma'naviy axloqiy kamolotida tutgan o'rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelinayotgan xalqimiz boy tarixini, mustaqilligimiz odimlarini aks ettiruvchi noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o'rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ'ib qilish, ulardan xalqimiz ongida milliy g'urur va iftixon, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg'ularini kuchaytirish yo'lida keng foydalanish, muzeylarni zamon talablariga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi tajribalarini ko'llashga zarur shart-sharoitlar yaratishga doir chora-tadbirlar amalga oshirildi.¹⁵

Tabiiyki, tarix muzeylari xalq o'tmishi va xotirasining ifodasi hisoblanadi. Istiqlol yillarda tashkil topgan yana bir tarixiy muzey bu - "Qatag'on qurbanlari xotirasi" muzeyidir. 1999 yili Islom Karimov tashabbusi bilan mamlakatimizda qatag'on qurbanlari xotirasini abadiylashtirish va "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuasini barpo etishga qaror qilindi va bu borada ulkan ishlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1999 yil 12 maydag'i farmoniga ko'ra, mustamlakachilik davri qurbanlari xotirasini abadiylashtirish

komissiyasi tuzilib, Toshkentning Yunusobod tumanida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etildi. 2000 yil 12 may kuni “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasining tantanali ochilishi mamlakatimiz va xalqimizning ijtimoiy, madaniy va ma’naviy hayotida ulkan voqeа bo’ldi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 5 martdagи “Muzeylar faoliyatini qo’llab-quvvatlash masalalari to‘g‘risida”gi 98-sonli hamda 1999 yil 27 dekabrdagi “Termiz shahrining 2500 yilligini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va uni o’tkazish to‘g‘risida”gi 545-sonli qarorlari asosida o‘z faoliyatini 2001 yilda boshlagan Termiz arxeologiya muzeyi tashkil topdi.

2008 yil 12 sentabrda qabul qilingan “Muzeylar to‘g‘risida”gi Qonuni O’zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqimiz ma’naviy-axloqiy kamolotida tutgan o‘rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini o‘rganish, avaylab asrash, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ‘ib qilish imkonini yaratib berdi.

2009 yilda Toshkentda aloqa tarixi muzeyi ish boshlagan bo‘lsa, 2015 yilda esa mintaqadagi ilk bor Politexnika muzeyi ochildi. Bu boradagi ishlar tizimli davom ettirilib, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 25 yanvardagi “O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq O’zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ko‘p yillar davomida faoliyat olib borgan Toshkent shahridagi Oqsaroy qarorgohini muzeylashtirish ishlari davom etmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2017 yil 15 fevraldagи “O’zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi hamda “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi qarori muzeylar faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.¹⁶

Shu jumladan Namangan viloyat hokimligining bevosita rahbarligi ostida viloyatning “Ikkinchi jahon urushi”ga, “Qatog’on qurbanlarini yod etish”ga oid yo`nalishlarni o‘rganish, urush ishtirokchilarining hayot yo`lini jangovor ishlarni umumlashtirish, tiklash bo`yicha keng ko`lamli, xayrli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bunda ayniqsa viloyat “Xotira va qadrlash uyi” ilmiy xodimlari O’zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati viloyat kengashi bilan hamkorlikda olib borayotgan ishlari diqqatga sazovordir. Vatan tarixi, xotirasi aynan muzeylarda aks etadi. Respublikamizda faoliyat olib borayotgan 80 dan ortiq davlat muzeylari turli toifalarda va turli yo`nalishlarda bo`lib, bugungi kunda xalqimiz va turli mamlakatlardan tashrif buyurgan ziyoratchilarning ham ma’naviy, ham ma`rifiy jihatdan ongini, ruhiyatini boyitishda muhim amaliyot kasb etmoqda. Muzeylar faoliyatini takomillashtirish ichki va tashqi turizmnning rivojlanishiga olib keladi. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga

Murojaatnomasida turizmni rivojlantirish borasidagi quyidagi fikrlarni bildirib o‘tdilar: “Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilishdan iborat bo‘lgan “kichik haj” dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to‘liq ishga solish lozim”.

Zamonaviy iqtisodiyotning yangi va istiqbolli bo‘g‘ini turizm hisoblanadi. So‘nggi paytlarda mamlakatimizda turizmni rivojlantirish orqali yurtimiz iqtisodiyotini yuqori bosqichlarga ko‘tarish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, buyuk va navqiron o‘tmishimiz, tariximizni namoyon etuvchi ochiq osmon ostidagi muzey shahar deb nom qozongan tarixiy shaharlarga sayohatlar uyuştirish ommaviy harakatga aylanmoqda. Bu borada «Ochiq osmon ostidagi muzey» deya e’tirof etilgan qadimiy shaharlarimiz Samarqand, Buxoro va Xivada ham qator ishlar amalga oshirilmoqda.¹⁷

2017–2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning besh ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasi, jumladan, «Faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili» Davlat dasturida ham turizmni rivojlantirish bo‘yicha asosiy vazifalar belgilab olingan: mahalliy aholining mamlakat bo‘ylab sayohatlarini rag‘batlantirish, sayyoohlar uchun qulay infratuzilma yaratish, hududlarning sayyoohlilik salohiyatini keng targ‘ib qilish orqali ichki turizmni tizimli rivojlantirish; xorijiy sayyoohlarning tashrifi uchun keng sharoitlar yaratish, ularning sayohat dasturlarini mazmunan boyitish va ko‘rsatiladigan xizmatlar turlarini kengaytirish hisobiga turizmni jadal rivojlantirish; mamlakatimizdagi moddiy madaniy meros obyektlarida va ular atrofidagi obyektlarda tegishli infratuzilmani shakllantirish, amalga oshiriladigan diniy marosimlar uchun tegishli sharoitlarni yaratish orqali ziyorat turizmini sohaning istiqbolli yo‘nalishi sifatida rivojlantirish. Xulosa Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, muzeysunoslikka berilgan yuksak e’tiborning samarasi o‘laroq mazkur sohada quyidagi misli ko‘rilmagan ishlar amalga oshirildi: - muzeysunoslik sohasini rivojlantirish, takomillashtirishga doir qator qonun hujjatlari qabul qilindi hamda muzeylar faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi. - muzey ishini samarali yo‘lga qo‘yish hamda muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida jamg‘arma tashkil etildi. - mustaqillik yillarida O‘zbekiston muzeylarida saqlanayotgan moddiy va madaniy merosimizni keng jahon ommasiga namoyish etish bo‘yicha qator ko‘rgazmalar jahon muzeylarida tashkil etildi. Yuqorida sanab o‘tilgan soha rivojidagi muvofaqiyatlar O‘zbekistonda muzeysunoslik sohasini taraqqiy etishiga mustahkam zamin yaratgan omillardir. Tashkil etilgan va etilayotgan ko‘plab yangi muzeylar yosh avlodni tariximiz, moddiy va madaniy

merosimizni naqadar chuqur ildizga egaligini singdirgan holda, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari bilan tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Mustaqillik sharoitida jamiyatdagi yangi o`zgarishlarni amalga oshirish jarayonida, jamiyat a`zolarini, demokratik tafakkur va milliy g’oya ruhida tarbiyalash vazifalarini bajarishda biz yuqorida ko`rib chiqdik, muzeylarning ahamiyati ortib bormoqda. Albatta har qaysi xalq yoki millatning ma`naviyatini uning tarixi o`ziga xos urf-odat va an`analari, hayotiy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etib bo`lmaydi.

O`zbekiston Respublikasidagi muzeylar va tarixiy me`moriy yodgorliklar millatning madaniy uyg'onishi, milliy g'oyani targ'ib etish, xalq ongida milliy g'urur va qadriyatlarni kuchaytirishda, mustaqillik g'oyalariga sodiqlik hissiyotini, demokratiya va taraqqiyotga ishonchni mustahkamlashda muxim rol o`ynaydi. Bu borada birinchi prezident Islom Karimovning "Tarixiy xotirasiz barkamol kishi bo`limganidek, o`z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo`lmaydi", "Tarix-xalq ma`naviyatining asosidir", "Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q", "O`zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi", "Inson uchun tarixdan judo bo`lish-hayotdan judo bo`lish demakdir" degan ahamiyatga molik so`zları muzeylar va muzey xodimlari uchun dasturamal bo`lib xizmat qilmoqda.

Ajdodlarimizdan meros qolgan nodir-noyob eksponatlarni asrab – avaylashimiz, asrlar osha salobat to`kib bizgacha etib kelgan me`moriy obidalarimizni, arxeologik yodgorliklarimizni himoya qilishimiz, shuningdek, ikkinchi jahon urushi davri, azob-uqubatlari, xalqlarimizni matonatli jasoratlari bosib o`tgan hayot yo`llarini atroflicha o`rganishimiz hamda kelajak avlodlarga etkazishdek muqaddas ishlarni amalga oshirishimiz zarur. Mustaqilligimiz sharofati tufayli mamlakatimizda insonni e`zozlash, milliy va ma`naviy qadriyatlarmizni tiklanishiga katta e`tibor qaratilmoqda. 2008 yil "Muzeylar to`g'risida"gi Qonun qabul qilindi. Bu esa muzey xodimlari faoliyatini yanada jonlantirish bilan birga mas`uliyatini ham oshirdi. Muzey xodimlari faoliyati, muzeylarga oid bukletlar, kitoblar, suratlar ko`rgazmasi tashkil etib borilmoqda. Umuman axolini, o`quvchi yoshlarni tarbiyalashda muzeylarning roli beqiyosdir. Chunki barcha eksponatlarda tarixiy jarayon, ajdodlar nafasi bor. Ular qoldirgan ma`naviyat, boy merosni avaylab-asrash, avlodlarga etkazish esa muqaddas burchimizdir. Ushbu bitiruv ma`naviy ish mavzusining tahlili, shunday xulosalarga kelishimizni va shu yuzasidan quyidagi taklif va istaklarni keltirib chiqardi: - Mustabid- sovet davrida muzeylarining ijobiylaridan tashqari salbiy tomonlari ham kuzatildi. Muzeylarning rivojidagi etakchi o`rin mutaxasislar emas, kompartiya va uning rahbarlari egalladi. Muzeylarning asosiy yo`nalishlari xalqni kommunistik ruhda tarbiyalashdan iborat bo`ldi. Ma`muriy yodgorliklar (masjid va madrasalar) ombor, yotoqxonalar va boshqa narsalarga aylantirildi va hakazo. - O`zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, muzey ishiga davlat siyosati darajasida

e`tibor qaratildi. - Muzeylarni ixtisoslik bo`yicha malakali kadrlar bilan ta`minlash zarur.

5-mavzu. O`zbekistonda muzey ishi tarixi

(2 soat)

Mustaqil vatanimizda milliy o`zlikni tiklashga alohida e`tibor berilmoqda. Zero bizning yurt ajdodlarining tarixda ko`rsatgan buyuk xizmatlarini xolis o`rganish va targ`ib etish alohida ahamiyat kasb etadi.

Sovet davrida faqat «Qizil imperiya» mafkurasiga xizmat qilgan muzeylar endilikda milliy o`zlikni anglashga xizmat qilishi lozim.

Mustaqillik davrida muzeylar ishiga alohida e`tibor berilmoqda. Buning bir qancha omillari bor:

Birinchidan, mustamlakachilik yillarida ongimizdan o`chirib tashlangan milliy tuyg`ularni qayta tiklash;

Ikkinchidan, milliy g`urur, milliy ongni yuksaltirish uchun unutilgan tariximizni qayta tiklash;

Uchinchidan, ajdodlar hurmatini joyiga qo`yish, yosh avlodni ajdodlar nomi va merosi bilan faxlanishga o`rgatish, milliy g`ururini yuksaltirish, buyuk an`analarning davomchisi etib tarbiyalash;

To`rtinchidan, milliy qadriyatlarimiz bizga demokratik, xuquqiy, qudratli O`zbekiston davlatini barpo etish uchun «O`zbekiston kelajagi buyuk davlat» g`oyasini ro`yobga chiqarish uchun kerak;

Beshinchidan, milliy qadriyatlarimiz mamlakatimizning jahon hamjamiyatidan munosib o`rin egallashi, kelgusi avlodlarga ozod va obod Vatan qoldirish uchun kerak.

Ushbu yo`nalishlarga Prezidentimiz asarlarida qayta-qayta to`xtalib o`tmilmoqda.

Ana shu maqsadlar hukumat siyosiy tadbirlarida o`z ifodasini topmoqda. 1998 yil 12 yanvarda «Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g`risida» O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni e`lon qilindi. Farmonda asosan O`zbekiston hududida qadimdan shakllangan muzeylar tizimining shakllangan muzeylar tizimini yanada takomillashtirish, ularning xalqning ma`naviy-ahloqiy kamolotida tutgan o`rnini oshirish, muzey fondlarida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixini mustaqilligimizning odimlarini aks ettiruvchi, noyob, nodir eksponatlarni avaylab asrash, o`rganish, boyitib borish, dunyoga olib chiqish va targ`ib qilish, ulardan xalqimizning ongida milliy g`urur va iftixor, istiqlol va Vatanga sadoqat tuyg`ularini kuchaytirish yo`lida keng foydalanish, muzeylarning zamon talablariga mos yuqori malakali mutaxassislar bilan ta`minlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlab, jahon muzeyshunosligi

tajribalarini qo`llashga zarur sharoitlar chora tadbirlar- madaniyat ishlari vazirligi qoshida muzeylarni qo`llab quvvatlovchi «O`zbekmuzey» jamg`armasi tashkil etildi. Bu jamg`arma muzeylar fondlarida yillar davomida saqlanib kelayotgan xalqimizning boy tarixidan guvohlik beruvchi noyob nodir eksponatlarni avaylab asrash, ularni ilmiy tomonlarini o`rganish, ta`mirlash, yangi eksponatlar bilan muzey zallarini boyitish bilan shug`ullanmoqdalar.

Bugungi kunda mamlakatimiz hududidagi turli muassasalar, korxonalar, qurilish tashkilotlari, qishloq, jamoa boshqaruv xo`jaliklari qoshida, shahar, tuman, viloyat markazlarida, xalq ta`limi tizimida 1200 dan ortiq muzeylar bo`lib, ularning eng yiriklari poytaxtimizda joylashgan. Shu bilan birga, o`nlab yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar va mashhur san`at arboblari uy muzeylari mavjud.

Bu muzeylar xalqimizning uzoq tarixidan xikoya qiluvchi, moziydan sado beruvchi ma`naviyat maskanlari bo`lib, milliy mafkura va tafakkurni rivojlantiruvchi, yoshlarda milliy g`urur va iftixorni yuksaltirishda ulug` qadamjolar bo`lib qolmoqda.

O`zbekiston Vazirlar Maxkamasining «Muzeylar faoliyatini tubdan qo`llab quvvatlash masalalari to`g`risi» dagi 5 mart 1998 yil 98 sonli qarori «O`zbekmuzey» jamg`armasiga, O`zbekiston muzeylar jamoatchilik kengashining xalqaro muzeylar kengashi-IKOMga a`zo bo`lganligini hisobga olib, O`zbekiston muzeylariga har tomonlama yordam ko`rsatish vazifasi topshirildi. Ushbu qarorda mamlakat muzeylarini ta`mirlash, zarur texnik vositalar va zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash hamda mablag` bilan ta`minlash vazifalari yuklatilgan.

Mazkur qarordan ilhomlangan «O`zbekmuzey» hodimlari qator ishlarni amalga oshirmoqdalar. Mavjud barcha o`zbek muzeylari fondidagi eksponatlarni yagona ro`yxatini tuzish, eksponatlarni doimiy himoya qilish sharoitlarini yaxshilash, saqlanayotgan eksponatlarning qat`iy nazoratini ta`minlash, ilmiy konsepsiylar ishlab chiqish, xorijiy mamlakatlardagi muzeylarda saqlanayotgan tariximizga va ma`naviy boyligimizga oid osoriatiqalarni, shuningdek, qadimiy qo`lyozmalarni ro`yxatga olish, ularni halqimizga tanishtirish, shuningdek, muzeylardagi nodir eksponatlarni dunyoga olib chiqish, jahon xalqlariga tanishtirish sohasida tegishli tashkilotlar bilan hujjatlar ishlab chiqish shartnomalar tuzish ishlarini olib bormoqdalar. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Ijtimoiy va ma`naviy muhitni yanada sog`lomlashtirish to`g`risida» gi hamda «Ma`naviy va ma`rifiy islohotlarni samaradorligini yanada oshirish chora tadbirlari to`g`risi» dagi qarorlariga javoban qator tadbirlar ishlab chiqdik. Shunga ko`ra, mamlakatdagi barcha muzeylarda har oyning bir kuni «Ochiq eshikular kuni» deb e`lon qilindi. Shu kuni muzeylarga o`quvchilar, talabalar va boshqa tomoshabinlarga muzey xodimlari bepul hizmat ko`rsatmoqda. Shuningdek, tariximizning yorqin iz qoldirgan allomalarga bag`ishlab, muzeylarda «Barhayot siymolar» mavzusida

adabiy kechalar, «Istiqlol, ma`naviyat va muzey» mavzusida tadbirlar o`tkazilib kelmoqda. Ayniqsa, Imom Buxoriy, Ahmad al-Farg`oniy, Kamoliddin Bexzod, Jaloliddin Manguberdi, Ogahiy va boshqa allomalarga bag`ishlab muzeylarimizda o`tkazilayotgan tadbirlar yoshlarni ajdodlar me`rosiga sadoqat ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tarixizdan ma`lumki, Turon Movaraunnaxr, Turkiston deya atab kelingan, «Buyuk ipak yo`li»da joylashgan O`zbekiston Sharq bilan G`arbni bog`lovchi, ularni iqtisodini, madaniyatini, san`atini, taraqqiyotini bog`lab turadigan bir makon bo`lgan.

«Buyuk ipak yo`li»ning vorisi sifatida O`zbekistonga ko`plab mamlakatlar AQSH, Yaponiya, Germaniya, Fransiya va Italiya kabi davlatlar juda katta qiziqish bilan qaramoqda. Ular ajdodlarimiz me`ros qilib qoldirgan muzeylarimizada saqlanayotgan noyob osori-atiqalarni ko`rish, qadimiy-tariximiz, boy madaniyatimiz bilan tanishish istaklarini bildirmoqdalar.

«Amerika Qo`shma Shtatlarida qadimiy «Buyuk ipak yo`li» da joylashgan, uyg`onish davrida ham, o`rta asrlarda ham jahon taraqqiyotining, ilm-fan rivojining o`chog`i, buyuk allomalar makon topgan, boy tarixi, madaniyatga ega bo`lgan bugun ham katta ilmiy-iqtisodiy taraqqiyot imkoniyatlariga ega bo`lgan sizning O`zbekiston Respublikangizga hurmat, qiziqish juda kattadir», -deb yozibdi Islom Karimovga yo`llagan xatida AQShdagagi Markaziy Osiyo muzeyi direktori, Pensilvaniya universitetining professori, doktor Fredrik T. Xiberg.

Shu mazmundagi xatlar Yaponiyadan, Fransiyadan, Germaniyadan, YUNESKOdan, Xalqaro muzeylardan tashkiloti IKOMdan tez-tez kelib turibdi. Gap shundaki, hammasi ham o`z mamlakatlarida muzeylarimizdagи eksponatlarni ko`chma ko`rgazmasini tashkil etishni taklif tmoqdalar. Mustaqillik davrida yurtimizda buyuk tarixiy siymolarga atalgan haykal va muzeylar soni ko`payib bormoqda.

Mustaqillik davrida buyuk tarixiy siymolarga atalgan haykal va muzeylar qurildi.

1993 yilda Amir Temur Xiyoboni o`rtasida Sohibqiron Amir Temurga Suvoriy haykal o`rnatildi.

1996 yilning 18 oktabr kuni mamlakatimiz poytaxti Toshkentda buyuk sarkarda va davlat arbobi Amir Temurga atab Sharq Milliy me`morchiligining noyob va mo`jizaviy namunasi sifatida bunyod etilgan Temuriylar tarixi davlat muzeyining tantanali ochilish marosimi bo`lib o`tdi.

Prezident I.Karimov muzey ochilish marosimida so`zlab «Bugun zo`r shodiyona- bilan ochilayotgan Temuriylar tarixi davlat muzeyi sohibqiron shahsiyatiga nisbatan yurtimizdagи tarixiyadolat tantana qilganing yana bir amaliy isbotidir.

Aytish mumkinki. Amir Temur hiyoboni go`zal bir uzuk bo`lsa, bu muzey shu uzukning yoqt ko`zidir. Muzeyni ziyorat qilgan har bir inson mening bu so`zlarim shoirona tashbeh yoki mubolag`a emasligiga ishonch xosil qiladi. Bu muzeyda bizning o`tmishimiz ham, bugungi kunimiz va buyuk istiqbolimiz ham bamisol ko`zguda aks etgandek namoyon bo`ladi. Kimki O`zbek nomini, o`zbek millatini kuch qudratini, adolatparvarligini, cheksiz imkoniyatlarini, uning umumbashariyat rivojiga qo`shgan xissasini, shu asosda kelajakka ishonchini eslash kerak.

Amir Temurning bashariyat oldidagi o`lmas hizmatlarini ma`rifatli jahon munosib baholamoqda. Sohibqiron yubileyining YUNESKO tomonidan xalqaro miqiyosida keng nishonlanganligi ana shu e`tirofning yorqin dalilidir.

Shunday quvonchli va hayajonli damlarda Amir Temurdek buyuk zot mansub bo`lgan millat farzandlari ekanimizni, tomirlarimizda Amir Temur shijoati jo`sh urayotganini o`ylasak, anglasak, qalbimizni chinakam iftixor tuyg`ulari qamrab oladi.

Amir Temur hayotining mazmuni, betakror faoliyatining asosiy ma`nosi-Vatan ozodligi, vatanga muhabbat degan oliy qadriyatlardan iboratdir.

Chuqurroq o`ylab qarasak, bu vasiyat aynan biz uchun- buyuk sohibqironning bugungi avlodlari uchun aytilgan.

Bu dunyoda xalqimiz, millatimiz, O`zbekistonimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayot!»

Umumiy maydoni besh ming kvadrat metrni tashkil etgan bu muzey 6 oy davomida qurilib bitkazildi.

Muzey qurilishida butun mamlakat mutaxassislari ishtirok etdilar.

Toshkentlik qo`li gul quruvchilar, chinnisozlik va keramika, «Mikond» korxonalarining mohir hunarmandlari, «Usta» birlashmasi, Yugoslaviyaning «Torevik» firmasi va boshqa o`nlab mehnat jamoalari bu ishga munosib hissa qo`shtilar.

1996 yil 1 sentabrda davlatimiz mustaqilligining 5 yillik to`yida Toshkentda O`zbekiston Respublikasining Prezidenti I. A. Karimov va Xalqaro Olimpiya Qo`mitasi (XOQ) raisi X. A. Samaranch Olimpiya Shon-shuhratmuzeyining tantanali ravishda ochdilar. Muzeyni ochish marosimida sportchilar, murabbiylar, Jismoniy tarbiya va sport davlat qo`mitasi, O`zbekiston Olimpiya qo`mitasi, sport klublari, va jamiyatlari vakillari ishtirok etishdi.

Muzeyni bezash ishlarida eng iqtidorli rassomlar va haykaltarshlar, O`zbekiston xalq ustalari qatnashdilar. Muzeydagi eng asosiy mavzu-hozirgi zamon Olimpiya o`inlari. Eksponatlardagi Olimpiya harakati qachon paydo bo`lgani, O`zbekiston Milliy Olimpiya qo`mitasining barpo etilganligi, mamlakatimizda olimpiya g`oyalarining taraqqiy etganligi, Olimpiya O`yinlarining o`tkazilishi va shu O`yinlarda g`olib sovrindor bo`lib chiqqan O`zbekiston sportchilarining

ishtirok etayotganligi haqida hikoya qilinadi. Muzeyga tashrif buyurganlar XX asr Olimpiya O`yinlarining shonli tarixida o`z nomlarini qoldirgan bir qator sportchilar bilan tanishadilar. G. Shamray (gimnastika), S. Babanina, N. Ustinova (suzish), V. Duyunova, L. Pavlova (valeybol), R. Kazakov, A. Fadzayev, aka-uka Xadarseylar (kurash), R. Risqiyev (boks), S. Ro`ziyev (qilichbozlik), R. Gataulin (langarcho`p bilan sakrash), L. Axmedov, A. Xan (chim ustida xokkey), R. Yambulatov(miltiqdan otish), N. Muxammadiyorov (og`ir atletika), O. Chusovita, R. G`aliyev (gimnastika), L. Cheryazova (fristayl) shular qatorida o`rin olgan.

Ekspozitsiyalarda mustaqil O`zbekiston terma jamoasining 1996 yili Atlanta shahrida (AQSH) Olimpiya O`yinlarida ishtirok etgani to`g`risidagi qiziqarli ma`lumotlar alohida o`rin tutadi.

Horijiy mutahassislarning e`tirof etishlariga ko`ramamlakatimizning sportchilarining musobaqalarda birinchi marta ishtirok etganliklari muvaffaqiyatlari chiqqan; A. Bagdasarov (dzyudo) kumush medaliga, K. To`laganov (Boks) bronza medaliga sazovor bo`lishdi, O. Chusovitina (gimnastika), R. Galiyev (yengil atletika), R. Islamov, A. Ochilov (kurash) o`z yuksak mahoratlarini qo`rsatishdi.

Har qanday muzeyda bo`lgani kabi, katta qiziqish uyg`otgan eksponatlar bu yerda ham mavjud. Bu avvalo, O`zbekiston Prezidenti I. A. Karimov taqdirlangan Olimpiya oltin nishoni va Osiyo Olimpiya Kengashi nishoni, shuningdek, turli hil boshqa mukofotlar, sovrinlar, medallar, fristayl bo`yicha jahon championi L. Cheryazovaning shaxsiy sport jihozlari, Xalqaro Olimpiya Qo`mitasi Prezidenti X. A. Samaranchning muzey ochlishida topshirgan esdalik sovg`alari, rang-barang nishonlar, ayniqsa, diqqatga sazovardir.

Olimpiya shon-shuhrat muzeyi faqatgina o`z faoliyati bilan cheklanib qolmasdan, balki O`zbekiston Jismoniy Tarbiya va sport davlat qo`mitasi, hamda O`zbekiston Olimpiya Qo`mitasi bilan ham yaqindan hamkorlik qiladi: matbuot konferensiyalari, anjumanlar o`tkazish, sportchilarni musobaqalarga kuzatish, har xil turnirlar va musobaqalarning g`oliblari bilan uchrashuvlar uyuştirish kabi tadbirlarni amalga oshiradi. Ko`pincha, aynan ana shu uchrashuvlardan keyin sportchilar o`zları qo`lga kiritgan sovrin va kuboklarni mukofot tariqasida muzeyga topshirib ketadilar.

Muzey zamonaviy video texnikasi bilan jihozlangani tufayli, bu yerda Toshkentda bo`lib o`tadigan turli xil sport musobaqalari shuningdek, muzeyda o`tkaziladigan matbuot konferensiyalari, anjumanlar, qutlovlarni tasvirga tushirish va keyin ommaga namoyish etish imkoniyati yaratilgan. Bu lavhalardan sport mutahassislari, televideniye va ommaviy axborot vositalaridan sport taxririyatlari foydalanadilar. Muzeydagi texnik jihozlar, eksponatlar va jamg`armalar, video mahsulotlari, mahsus adabiyotlar har xil sport turlari mutahassislari, O`zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti talabalari, malaka oshirish kurslari

tinglovchilarining ilmiy, uslubiy tadqiqotlar o`tkazishlariga katta imkoniyatlar yaratib beradi.

Muzey Lozannadagi XOQ MOK bosh qarorgoxi huzuridagi Olimpiya Shon-Shuhrati muzeyi bilan aloqalar o`rnatish va hamkorlik qilish to`g`risidagi tamonlama shartnoma imzolagan, ekspozitsiyalar va adabiyotlar soni shu yo`l bilan ahm ko`payib boradi.

Olimpiya Shon-Shuhrati muzeyi xalqaro Olimpiya Qo`mitasi Prezidenti X. A. Samaranch tomonidan yuksak baholangan, u muzeyga «Muzey jahonda ikkinchi o`rinda turadi», baho bergen edi.

Mustaqillik yillarda muzeylar rivojlanib bormoqda.

«O`zbekiston xalqlari tarixi» muzeyining yangicha asosda qurilishi, uning ekspozitsiyalarining qaytadan ko`riilib chiqishi shuningdek shahidlar xotirasiga bag`ishlab alohida muzey tashkil etilishi fikrimizning isbotidir.

V. KO`CHMA MASHG`ULOT MATERIALLARI

1-mavzu. Muzeyda fond ishi, ekskursiyashunoslik, muzey ekspozitsiyasini tashkil qilish masalalari.

(6 soat)

Urush yillarda muzeylar ishi. 1945-80 yillarda muzeylar ishi. 1941 yil iyunda SSSRning 2-jahon urushiga tortilishi. Mamlakatning harbiy izga tushishi. Ilmiy tadqiqot masalalari. Muzeylar faoliyati. Muzeylarning qisqartirilishi. Frontlarda ko`chma muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish. Ko`chma statsionar muzeylar. Muzeylarda harbiy texnika ashyolari ekspozitsiyalarining tashkil toptirilishi. Muzeylarda Armiya muvaffqiyatlari kirgazmalari tashkil ettirilishi. Ulug` Vatan g`alabasi namunalari. Harbiylarning sovg`alari ekspozitsiyalari. O`zbekiston kolxoz, sovxozi ishchilari frontga yordam fondlari. O`zbekistonga evakuatsiya qilingan bolalar, zavodlar, harbiy qurilmalar ekspozitsiyalari. SSSR XKS ning 1943 yil 27 sentyabr “O`zbekiston SSR Fanlar Akademiyasini tashkil etish haqida” qarori. Tarix va San`at muzeylarining tashkil topishi. Ilmiy metodik rahbarliklar. Uy muzeylarning tashkil topishi. Memorial muzeylarining shakllanishi. Turli yinalishdagi muzeylarga asos solinishi. va h.k

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g`risida”gi Farmoni 1998 yil 12 yanvar. 9 Mustaqillik davrida muzey ishidagi izgarishlar. Mustaqillik davrida muzeylarning o`rni. Sho`rolar hukumatining muzey ashyolariga nisbatan tajovuzkorona siyosati. Tarixiy qadriyatlarimizning vatanimizdan olib chiqib ketilishi sabablari. Vatanimizdan olib chiqib ketilgan muzey ashyolarining qaytarib keltirish Chora

tadbirlari. Muzeylarda milliy g`ururning ifodalanolishi. Muzeylarda ajdodlar ruhiga hurmat kirgazmalar namoyishlari tashkil topishi. O`zbekiston Prezidentining 1998 yil 12 yanvar qarori “Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to`g`risijdagи Farmoni. O`zbekiston muzeylarining jahon bo`ylab ko`chma namoyishlari tashkil topishi. Jahonning mashhur muzeylari ko`chma eksponatlarining O`zbekistonda tashkil ettirilishi. Mustaqilik yillaridagi tashkil topgan muzeylar. Temuriylar muzeyining tashkil topishi. Qatog`on qurbanlari muzeylari qurilishi. va h.k.

Umumiy tushunchalar. Muzeylarning o`zga institutlardan farqi. Muzeyshunoslik ijtimoiy fan sifatida. Ijtimoiy funktsiyalarni o`rganishda muzeylarning o`rni. Muzeylar madaniyatning poydevori. Muzeylarning madaniyat va tabiiy-tarixiy Yodgorliklarni iganishdagi ahamiyati. Ilmiy ma`rifiy muassasalar sifatida muzeylar faoliyati. Muzeylarning ijtimoiy talab-ehtiyojni qondirishga, tarixiy xotirani hujjat-ma`lumotlari asosida jonlantirishga, kishilarga estetik zavq bag`ishlashga xizmat qilishi. Muzey ishi amaliyat, Yodgorliklarni saqlash, muzey tarmoqlari, muzey siyosati, qonunchiligi, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, ixtisoslashgan ilmiy-uslubiy va iquv markazlari, maxsus davriy matbuot, muzeyshunoslik kabi masalalari. Muzeylarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati Muzeylar tadqiqot markazlari. Muzeyshunoslikning tadqiqot predmeti. Muzeylarning tadqiqotchilik masalalari, faoliyati. Tadqiqotlar muzeylar ilmiy faoliyatining eng asosiy bo`g`inlaridir. Ilmiy tadqiqotlar asosida ashyolarni ta`mirlash. Muzey polufunktional muassasa. Muzey tadqiqotchiligining murakkab tomonlari. Turli sohalarni o`rganish muzey ishini rivojlantirishga mo`ljallanadi. Tarix muzeylarining ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati. Olimlarning muzeyshunoslikka qo`shgan hissalari. Ashyoviy-tasviriy va yozma manbalarning tadqiqot ob`ekti sifatida. Davlat muzey fondi Muzey fondi tushunchasi. Muzey fondlarini ilmiy asosda tashkillashtirish. Fond ishlarining asosiy yo`nalishlari. Muzey ashyolarini o`rganish uslubiyati. Muzey faoliyati muzey fondalari orqali amalga oshiriladi. Muzey funktsiyasining bajarilishi muvaffaqiyati. Muzey kadrlarining bilim manbalari. emotsiyal va milliy-madaniy qadriyatlar. Fond orqali o`tmish, bugun va kelajakni bog`lash. Muzey fondlari arxiv va kutubxona fondlaridan farqli tomonlari. Moddiy, Tasviriy. Yozma, Fonoyozuv, Kinofilmlar to`g`risida. Muzey ishi semantik informatsiya balki attraktiv jihatlari. e`tiborni jalb qilish, to`lqinlantira olish, hayajonlantirish ya`ni ekspressiv jihatlari. Muzey fondlarni to`ldirish Muzey fondlarini to`ldirish. Muzey ashyolariga ilmiy pasportlar qo`yish. Mustaqillik yillarida O`zbekiston muzeylarida numizmatik, harbiy-tarixiy, etnografik, zoologik, botanika, badiiy, me`moriy, ganchkorlik, kandakorlik, xarakteriga ega asl muzey ashyolari yig`indisi. Yig`ilgan ashyolarni pasportini tuzish. Fanda foydalanish jarayonlari taqozosi. Muzey ashyolarining manbaviy ahamiyati. Ashyoning tarixiy-

ilmiylik nisbati. Muzey ashyolarini yig`ishda ekspeditsiyalar tashkil qilish. Materialni qat`iy ilmiy asosmda tanlash yig`uv-to`plov ishining majburiy shartlari. Dala sharoitidagi yig`uv, pasportlash shart-sharoitdlari. Muzey ashyolarini hisobga olish Muzey fondlarini hisobga olishning maqsad va vazifalari. Fondlarni hisobga olish va hisob hujjatlari. Muzey fondlarini ilmiy kataloglashtirish. Muzey fondlari-davlat mulki. Muzeylarning fondlarini yuridik himoyalash. Ashyolarni qat`iy joylashtirish va qonuniy kafolatlari. Muzey ashyolarini yuridik holatini rasmiylashtirish. Ashyolarni tegishli ilmiy xodimlarga biriktirish. Muzey fondlarida mavjud bo`lgan vaqtinchalik saqlanayotgan ashyolarni ro`yxatga olish. Ashyolarni dastlabki va keyingi holatlarini nazoratga olish Ashyolar turar joylari to`g`risida ma`lumotlar topish imkoniyatlari. Fond hujjatlashtirilishida informatsion tizim. Ashyolar to`g`risida monografiya maqolalar chop ettirish. Fond ashyolarining elektron informatsion tizimini yaratish. Ashyolarning bayonnomasini yozish. Muzey fondlarini saqlash “Muzey fondlarini saqlash” tushunchasi. Fondlarni saqlash tartibi. Harorat, namlik darajasi, havoni ifloslantirishdan saqlash tartibi, biologik tartib, yorug`lik tartibi, mexanik shikastlardan saqlash tartibi, muzey fondlarini ekstremal vaziyatda saqlash. Saqlanish tartibiga rioya etish. Fondlardagi ashyolarning tabiiy holatiga e`tibor qaratish. Kemiruvchi zararkunandalarga qarshi kurash tadbirlari. Yozgi va qishki harorat normalarini ishla`b chiqish. Metal, mo`yina ipak, paxta, sintetik tosh materiallarganeng o`ziga xos harorat tempraturamsga amal qilish. Mexanik va ekstremal holatlar urilishida yong`in, er silkinishi, bo`ron, suv toshqini kabi holatlarda muzey fondlari shikastlanmaslik chora-tadbirlari. Muzey ashyolarini o`rganish Muzey predmetlari tushunchasi. Tarix ixtisosи biyicha muzeylarning predmetlari. Muzey predmetlari-ekspozitsiyaning asosiy yadrosi. Muzey predmetlari haqidagi dastlabki muzeografik yozuvlar. I.D. Mayor 17 asr. Muzey predmetlari haqida. Muzey predmetlari real, haqiqiy ashyolar. Muzey ashyolari darak beruvchi, isbotlangan asl manba. Ashyoviy va tasviriy informatsiya manbabai. Muzey ashyolarida tarix xotirasi mujassam. Ijtimoiy informatsiya beruvchi manbalar. Muzey ashyolari tarixiy-madaniy taraqqiyotni yorituvchi predmetlardir. YOzma manbalar uch turga bilinadi.

1-Qonuniy, siyosiy, statistik, olimlar tadqiqotlari va h.k.

2- estetik zavq beruvchi badiiy adabiyot. 3- Publistik, memuar, xronika yilnomalar. Fono va mikrofilmlar. Muzeyning ilmiy ma`lumotnomma apparati Umumiy tushunchalar. Kataloglar tizimi. Yo`lko`rsatkichlar tizimi. Muzey ashyolariga ilmiy ma`lumotnomma apparati tuzish. Ashyolardan imkon qadar keng foydalanish. Hujjatlarning tahlili, tarkibi, mazmuni –mohiyati, manzilini umumlashtirish. Muzeylarda ashyolarni kataloglashtirishni yo`lga qo`yish. Kataloglar tuzish sxemalarini tuzish. Tanlash topish, bayon qilish. Tarmoq, mavzu,

muammo, masala, familiyalar, sanalar biyicha umumlashgan hujjatlar tuzish. Kataloglar ikki xil:

1-Mantiqiy bunga sistematik, xronologik mavzular umumlashtiriladi.

2- Alfavit tuzilishli kataloglar, mantiqiy bog`lanmagan holda tuziladi. Muzey ekspozitsiyasi Asosiy tushunchalar. Tarixiy muzeylar ekspozitsiyasi. Ularning qurilish tamoyillari. Muzey ekspozitsiyalarining qurilish uslubi. Tarixiy muzeylar ekspozitsiyasining mavzuiy strukturasi. ekspozitsion materiallar. ekspozitsion komplekslar. Tarixiy muzeylarda turli ekspozitsiyalarning xususiyatlari. Tarixiy ekspozitsiyalarning maqsadlari va vazifalari. Vatanga muhabbat tuyg`usini uyg`otish. Muzey ekspozitsiyalarining o`ziga xosligi. ekspozitsiya tuzishda muzey predmeti ekspozitsiya elementi–eksponati. ekspozitsion materiallar. ekspozitsion komplekslar. Muzey ekspozitsiyasi-muzey kommunikatsiyasining asosiy formasi. ekpozitsiya tuzish ikki xildir. 1- Ilmiylik. 2-ashyoviylik. Mavzuiy strukturani ishlab chiqish. Ekspozitsiyani loyihalashning ilmiy asoslari Ekspozitsiya yaratish bosqichlari. ekspozitsion yordamchi materiallar. Tematik reja. ekspozitsiyani ilmiy tayyorlash. Muzey ilmiy kengashi. Ekspozitsion kirgazmali ish. Muzey faoliyatini rejallashtirish. Perspektiv va yillik rejalarda ekspozitsiya va kirgazmalarning mavzui, navbati, tashkil etilish vaqt. Muzey ekspozitsiyasini yaratish ikki bosqichda amalga oshiriladi; 1- Loyihalash. 2-Amalga oshirish. Loyihalash uch o`zaro bog`langan elementdan tashkil topadi; 1- Ilmiy. 2-Badiiy. 3-Texnik ish. ekspozitsiya ahamiyatini oshirishdagi ilmiy yordamchi materiallar. Tarixiy ekspozitsiyalarda ijtimoiy-iqtisodiy, etnografik, siyosiy, harbiy-tarixiy, biografik kartalar o`rni. Muzey ekspozitsiyasining me`moriy-badiiy yechimi Asosiy tamoyillar. Me`moriy-badiiy yechimi. ekspozitsion ansambl. Muzeylar ishining samarali bo`lishida me`moriy-badiiy loyiha e`tibor berish. Muzeyning madaniy omborxonasi. Unda san`at ashyolari saqlanadigan muassasaligi bunda esa go`zallik, ilmiylik, tarixiylik, xolislikka katta e`tibor qaratish. Zamonaviy ekspozitsyaning eng optimal turlaridan biri bilan bog`liq ansambl–majmu`alar yaratish. Asl voqe`likni ko`rsatib berish. Amaliy mashg`ulot Fanning predmeti, maqsad va vazifalari. O`zbekistonda muzey ishi tarixi. 1917-1941 yillarda muzey ishi va Yodgorliklarni asrash 1941-80 yillarda O`zbekistonda muzeylar va muzey ishi Mustaqillik davrida O`zbekistonda muzeylar va muzey ishi. Ijtimoiy madaniy institut sifatida muzeyning umumiyl tavsifi. Muzeylarning ilmiy tadqiqotchilik faoliyati. Davlat muzey fondi. Muzey fondlarni to`ldirish. Muzey ashyolarini hisobga olish. Muzey fondlarini saqlash. Muzey ashyolarini o`rganish. Muzeyning ilmiy ma`lumotnomma apparati. Muzey ekspozitsiyasi. ekspozitsiyani loyihalashning ilmiy asoslari. Muzey ekspozitsiyasining me`moriy-badiiy yechimi. Ilova: talaba tomonidan amaliy mashg`ulot mavzularining 10 tasi o`zlashtirilishi shart. M

VI. KEYSALAR BANKI

Keys.

Dizaynerlarni dizayn nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug‘lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi xaqida tanishtirib borish;

Milliy natyurmortni tasviriylanayotgan buyumlarning tekislik va kengliklariga tushayotgan yorug‘liklar va ulardagi tuslarning xususiyatlarini bir-biriga aloqadorligini hisobga olishni tushuntirish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun Dizaynerlarga amaliy mashg‘ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

Кейсни бажариш босқчилари ва топшириклар:

- Кейсдаги муаммони келтириб чиқарган асосий сабабларни белгиланг(индивидуал ва кичик гурӯҳда).
- Dizaynerlarga амалий машғулотлар асосида зарурий билимларни бериш.

Dizayn turlari va sohalarini rivojlantirish metodikasi dasturi:

1. Tinglovchiga tasvirlanayotgan buyumlarning tekislik va kengliklariga tushayotgan yorug‘liklar va ulardagi tuslarning xususiyatlarini bir-biriga aloqadorligini hisobga olishni tushuntirish;

2. Dizaynerlarni chizmatasvir nazariyasi asoslari, perespektiva, yorug‘lar, yarim soyalar, reflekslar va soyalar nazariyasi hamda chizmatasvirning texnika va texnologiyasi xaqida tanishtirib borish;

3. Kelajakdagi mustaqil ishlar asosini yaratish uchun Dizaynerlarga amaliy mashg‘ulotlar asosida zaruriy bilimlarni berish.

Mashg‘ulot paytida:

Tinglovchi va talabalarnining asosiy va yuqori amaliy bilimlardan qoniqish hosil qilishlari uchun o‘quv ustaxonasi kerakli yorug‘lik va chizmatasvirda qo‘llaniladigan zarur jihozlar bilan ta’milnishi kerak.

Ishlatiladigan ashyolar;

har xil yumshoqlikdagi oddiy grafitli qalamlar, ko‘mir, sous, sagina. planshet,qog‘oz, o‘chirgich.

chizmatasvir ishlash uchun dastgoh (molbert).

TOIFALASH JADVALI VA KONSEPTUAL JADVALINI - guruhlarga qo'llash, o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

TOIFALASH JADVALI VA KONSEPTUAL JADVAL.

1-guruh

Interer, kompozitsiyasi mavzusida ishlash zamonaviy pedagogik texnologiyalarni izohlang.

2-guruh

Interer kompozitsiyasi mavzusida ishlash zamonaviy pedagogik texnologiyalarda tasvirlash.

TOIFALASH JADVALI

| Perespektiva turlari. | | |
|-----------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------|
| Chiziqli perespektiva | Fazoviy perespektiva | Perespektivada tasvirni o'zlashtirish: |
| Giometrik qurilish uslubida | Tasviriy san'at tur va janr, asarlarida kuzatuvchidan uzoqlashgan sari havo muxiti ta'sirida tus va ranglarni o'zlashtirishni o'rganadi. | Ufq chizig'i, kesishish nuqtasi, kartina tekisligi, ko'rish nuqtasi, ko'rish maydoni |

KONSEPTUAL JADVAL

| | | |
|-------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|------------------------------------|
| Interer,kompozitsiyasi mavzusida ishlash | Intererda, toifalar, ajralib turadigan belgilar va shu kabilar | |
| | Pedagogik vazifa | Amalga oshiriladigan ishlar |

| | | |
|-----------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Interer,kompozitsiyada to‘g‘ri ko‘rish idrokini rivojlantirish | Intererda rang, shakllar va miqdor, o‘lchamni bilish | Xonadagi ichki ko‘rinishni to‘g‘ri topish, Interer,kompozitsiyasida ishlash noto‘g‘ri joylashgan buyumlarni aniqlash, xonadagi buyumlarni yetmagan elementlarini tasvirlash. |
| Ko‘rish xotirasi hajmini kengaytirish va uni aniqlashtirish | Xonadagi buyumlarni shakllarni eslab qolish | Stolga 5-6 ta intererni tasviri asosida rasmlar qo‘yiladi, buni talabalar eslab qolishlari kerak, so‘ng rasmlardan biri olib qo‘yiladi talabalar rasmlarni qayta ko‘rib, qaysi rasm yo‘qligini topishlari kerak. |
| Fazoviy tasavvurlarni shakllantirish | O‘ng,chap, yon, orqa, old, baland, past kabi fazoviy mo‘ljal olish | Perespektivada chap tomonida qanday predmetlar borlig‘ni ko‘rsatishni taklif etish: xonani derazalari qaysi tomoningda turibdi,eshik, shkaf qaysi tomonida turibdi, stol va stullarni joylamishini tekshiring. |
| Ko‘rish analizi va sintezini rivojlantirish | Tasvirlashda intererni elementlarini ko‘rib analizi va sintezini rivojlantirish va tasvirlash | Ko‘rsatilgan intererda peres pektivani chizilgan loyxada ko‘rsating, - Xonani ichki jixozlanishini ko‘rsating. |

Tavsiya qilinayotgan tasvirlar o‘zbek xalq amaliy bezak san’ati bilan mo‘jaz rangtasvir – miniatyura san’atining uyg‘unlashuviga oydinlik kiritadi

VII. MUSTAQIL TA'LIM MAVZULARI

Mustaqil ishni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lif tegishli o'quv moduli bo'yicha ishlab chiqilgan topshiriqlar asosida tashkil etiladi va uning natijasida tinglovchilar bitiruv ishi dirasida referat yoki kurs ishini tayyorlaydi.

Mustaqil ish talablari har bir tinglovchi o'zi tanlagan rassom ijodi yoki badiiy asar taqdimotini tayyorlaydi.

Mustaqil ish taqdimoti quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'ladi:

- Sarvaraq;
- annotatsiya;
- mundarija;
- asosiy qism: nazariy tahlil;
- illyustratsiyalar ilovasi;
- xulosa:;
- glossariy;
- adabiyotlar ro'yxati.

Keyslar banki;

Boshqa materiallar (fanni o'zlashtirishga yordam beruvchi qo'shimcha materiallar: elektron ta'lif resurslari, ma'ruza matni, glossariy, test, krossvord va boshq.)

Shuningdek, mustaqil ta'lif jarayonida tinglovchi kasbiy faoliyati natijalarini va talabalar uchun yaratilgan o'quv-metodik resurslarini "Elektron potrfolio" tizimiga kiritib borishi lozim.

Mustaqil ish mavzulari

Kompyuter grafikasi haqida ma'lumot.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasi va uning asosiy vazifalari.

Belgi va ramziy belgilarni kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining qo'llash imkoniyatlari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasi kursiga qo'yiladigan asosiy talablar.

Belgi va ramziy belgilarni kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining texnik vositalari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasida qo'llaniladigan grafik dasturlar haqida ma'lumot.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Windows amaliyot tizimidagi grafik muharrir.

Belgi va ramziy belgilarni kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Corel Draw grafik dasturi paketi. Uning grafik va servis

imkoniyatlari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Adobe Photoshop grafik dasturi paketi. Uning grafik va servis imkoniyatlari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Auto CAD grafik muharriri.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Grafik muharrirlarda chizma, rasmlarni tahrirlash va printer qurilmasi yordamida chop qilishni o‘rganish.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasining turlari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasi qanday fan ?

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasidan foydalanish.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Grafik chiqarish qurilmalari.

Badiiy vositalar tekst modellari va palitra ga qo‘shimcha effektlar, tasvirlarni yaratish va chiqarish haqida ma’lumot.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining qanday turlari mavjud?

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Tasvirlar animatsiyasi haqida ma’lumot.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Taqdimotlar va uni yaratish usullari.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasining rivojlanish bosqichlari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Kompyuter grafikasining fanlar bilan aloqasi.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Kompyuter grafikasining hayotga tatbig‘i.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Dizayn san’atida zamonaviy reklamaning o‘rni.

Dizayn texnologiyasi, asbob-uskunalar, materiallar va ulardan foydalanish.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

Badiiy loyihalashda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash.

Reklama plakati eskizini tayyorlash.

Belgi va ramziy belgilarning kelib chiqish tarixi, ularning turlari.

Belgi va ramziy belgilar kompozitsiyasi loyihasini yaratish.

VIII. GLOSSARIY

ГЛОССАРИЙ

Абстракция – мавхум шакл ва чизиқлардан иборат тасвирий санъат асари

Авантитул – титулдан олдинги бет

Абриса - ташқи кўриниш, хомаки режа

Автографский - тошбосма учун маҳсус қоғоз тури (корнпапир

Автолитография - муаллифлик тошбосма асари

Акватинта - офортнинг бир тури бўлиб, маҳсус рух тахтадаги чизма шаклларни соя фарқларга ажратиб ишлаш

Аккомпанемент – жўрлик

Натюрморт – жонсиз буюмлар тасвири

Образ – асар руҳиятини очиш, сиймо, тимсол

Орнамент - нақшли безак

Офорт – мис, рух пластинкаларга тасвир туширилиб, маҳсус асбобларда чизилди, кислотада ишлов берилиб, сўнгра босма усулда нусха олиш

Офсет – босма формадан резина мосламага кўчириб, ундан қоғозга босиш усули

Палитра – бўёқларни аралаштириш учун ясалган маҳсус таглик

Акцент – асар яратишда керакли жойларга урғу бериш

Архитектоника – китоб элементларининг жойлаштириш қурилмаси

Асфальту - битум ва минерал моддалар аралашмасидан иборат таббий ва сунъий масса, қоришка

Афиша - томоша ҳақида эълон

Биговка – тайёр босма маҳсулотини буклаш жойидаги ботиқ чизик

Блик - Ёруғлик нури энг кўп акс этган ялтироқ жой

Буквица – матн бошланишидаги нақшли бош ҳарф

Форзац – китоб варақларини муқова билан бириттириб турадиган қоғоз ёки латта

Форма – шакл

Форма – қолип

Формат – ўлчам

Форэскиз – хомаки нусхадан олдинги бирламчи чизгилар

Фрагмент – асарнинг кичик бир лавҳаси

Фронтиспис – титул ёнига жойлаштирилган расм ва китобнинг асосий мазмунининг тасвири

Характер - феъл, ахлоқ, хулқ-тасвирий санъатда моделнинг ички ва ташқи қолатини ўзига хослигини белгилайди

IX. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyun “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 28-avgustdagи “O‘zbekiston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3920-son Qarori.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-dekabrdagi “Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish to‘g‘risidagi PQ-4068-son Qarori.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevralndagi “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-4584-son Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-sentyabr “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlucksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabr “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-sonli Farmoni.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 25-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

21. Ismailova J. “Zamonaviy jahon muzeysunosligi”. [Matn] /J.Ismailova, M.Muxamedova. “PREMIER PRIENT”. MCHJ.- T., 2013. – 312 b.
22. Ismailova J., Nishonova K., Muxamedova M. – T.: Chinor ENK, 2015. - 176 b.
23. Nikitin N. Art-terapiya: Uchebnoye posobiye: Kogito-Sentr.- M., 2014.
24. Abdullayev N. San’at tarixi. –T. :O‘zbekiston, 2006. - 96 b.
25. Abdullayev N. San’at tarixi. –T. San’at, 2006. T. 2. - 192 b.
26. Egamberdiyev A. Tasviriy san’at va me’morchilik tarixi. O‘quv qo’llanma. – T.: O‘qituvchi, 2007. -160 b.
27. Ismailova J.X., Muxamedova M.S.. Madaniy turizmning tadqiqot va targ’ibot tamoyillari // Monografiya.-T: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi,2018-yil. -328 bet.
28. Muxamedova M.S. Muzeysunoslik sohasini rivojlantirishda Milliy va Xalqaro tashkilotlar faoliyatining o’rni (XX-XXI asrlar) Monografiya. – T.: “Yosh kuch press matbuoti”, 2017. - 297 b.
29. Romanchuk A.V. Muzeyny turizm. [Tekst] Uchebnoye metodicheskaya posobiya. / A.V.Romanchuk.- Sank -Peterburg, 2010. – 46 s.
30. Yurenjeva T.Yu. Muzeyevedeniye. [Tekst] / T.Yu.Yurenjeva – M.: Akademprojekt, 2003. – 302 s.
31. Walhimer M. Museum 101. [electron resourse] / M.Walhimer Amerika, 2015. – 238 r.

32. Stolyarov, B. A. Muzeynaya pedagogika. Istorya, teoriya, praktika. Uchebnoye posobiye. – M. : Vussh. shk., 2004. – 216 s. [elektron resurs].
33. Yuxnevich. M.Yu. Ya povedu tebya v muzey. – M., 2001. – 205 s. [elektron resurs].
34. Galkina, T. V. Muzeyevedeniye: detskiy muzey. Uchebno-metodicheskoye posobiye. – Tomsk: TGPU, 2004. – 32 s. [elektron resurs].
35. Loščin, N. P. Literaturnyy muzey i shkola [Tekst] : posobiye dlya uchiteley / N. P. Loščin.-M. : Prosveshcheniye, 1976.-133 s. (el.variant).
36. K.S.Nishanova, M.S.Muxamedova, J.X. Ismailova. Muzey va jamiyat. [Tekst]. – T.:2015. – 198 b.
37. Walhimer M. Museum 101. [electron resource] / M.Walhimer Amerika, 2015. – 238 r.

IV. Internet saytlar

38. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
39. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
40. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
41. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
42. <http://www.dsni.uz>.
43. <http://www.kino-teatr.ru> – Vse materialy po kino i teatra.
44. <http://www.artsait.ru> – Ensiklopediya russkoy jivopisi.
45. <http://belcanto.ru/> – Sayt ob opere i balete.
46. <http://music.edu.ru/catalog> – Sayt muzыki.
47. <http://artyx.ru/> – VseobЩaya istoriya iskusstv.